

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
MUQIMIY NOMIDAGI QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

MAGISTRATURA BO'LIMI

Qo'lyozma huquqida

**NAZAROVA DILAFRO'Z ISROIILJON QIZI
“UVAYSIY LIRIKASI POETIKASI”**

5A111201- O'zbek tili va adabiyoti

Magistr akademik darajasini olish uchun taqdim etilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari nomzodi, dotsent

D. Zohidova

“ ” 2020-yil

imzo

Kafedra mudiri v.b. : filologiya fanlari nomzodi, dotsent

D. Zohidova

“Himoyaga tavsiya etildi”

“ ” 2020-yil

imzo

Magistratura bo'limi boshlig'i: falsafa fanlari doktori (PhD) O.O.Bozorov

“Himoyaga ruhsat berildi”

“ ” 2020-yil

imzo

Qo'qon -2020

Annotatsiya. Ushbu dissertatsiya ishi shoira Jahon otin Uvaysiy lirik merosini an'anaviy mumtoz poetika qonuniyatlari, jahon va milliy adabiyotshunoslikda barqarorlashib borayotgan zamonaviy metodologik yondashuvlar asosida tadqiq etishga qaratilgan bo'lib, oliy ta'lim tizimida, o'zbek tili va adabiyoti fakultetlarida ijodkor uslubi va badiiy mahorat qirralarini o'rganish, mumtoz badiiy asarlarni tahlil qilish bo'yicha bilimlarini yanada yuksaltirishga qaratilgan.

Annotatoin. This dissertation is aimed at studying the lyrical heritage of the poet Jahon atin Uvaysi on the basis of classical poetic laws, modern methodological approaches, which are becoming more and more stable in world and national literature. The study aims to further enhance their knowledge of the analysis of classical works of art.

Mundarija

Kirish.....	3
1.BOB. Uvaysiy va uning adabiy merosi.....	9
1.1. Uvaysiyning hayoti ijod yo'li Qo'qon adabiy muhiti kontekstida.....	9
1.2. Uvaysiy adabiy me'rosining ilmiy tavsifi.....	13
2. BOB. Uvaysiy lirkasi poetik talqin nuqtai nazaridan.....	18
2.1. Uvaysiy g'azallari poetikasi.....	18
2.2. Uvaysiy muxammaslari poetikasi.....	32
2.3. Tarji'band va tarkibbandlari poetikasi.....	44
3. BOB. Uvaysiy lirk mahoratining muhim badiiy qirralari.....	52
3.1. Uvaysiy lirkasining yetakchi badiiy tasvir vositalari.....	52
3.2. Uvaysiy lirkasining vazn va qofiya xususiyatlari.....	71
Dissertatsiya yuzasidan umumiy xulosa.....	82
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	85

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va dolzarbligi. Ilm-u ma’rifat ziyofiga intilish – xalqimizning azaliy va yuksak qadriyatlaridan biridir. Shuning uchun u olim-u fuzalolarga, shoir-u daholarga cheksiz hurmat va ehtirom ko’rsatadi. Tarix qatlariiga nazar solsak, biz haqli ravishda faxrlana oladigan, har jihatdan bizga namuna, o’rnak bo’la oladigan siymolarni ko’plab topishimiz mumkin. Ana shunday iste’dod egalaridan biri Qo’qon adabiy muhitida o’zining salmoqli mavqeiga ega ijodkor, zavol bilmas asarlari bilan hozirgi kunda ham ardoqlanayotgan Jahon Otin Uvaysiy hisoblanadi. Uning lirik merosi Sharq tasavvuf falsafasi va adabiyotining daho vakillari – Alisher Navoiy, Fariduddin Attor, Bedil, Hoja Ahror Valiy qarashlari bilan umumiy zaminga ega bo’lib, ular xalqimizning ma’naviy-ma’rifiy dunyosini boyitishda beqiyos ahamiyatga egadir. Zero, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev aytganlaridek, “Hamma o’z tarixini, milliy ma’naviy merosini ulug’laydi. Lekin bizning yurtimizdagidek buyuk allgomalar, boy o’tmisht va noyob ma’naviy durdonalar hech qayerda yo’q. Bu merosni chuqr o’rganishimiz, xalqimizga, kelajak avlodlarimizga va dunyoga yetkaza bilishimiz kerak”¹. Mazkur fikrlarning isboti sifatida 2017-yil 24-maydagi “Qadimiy yozma manbaalarni saqlash, tadqiq va targ’ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori ham ajdodlarimizning boy ilmiy merosini o’rganish, tadqiq etish va keng targ’ib qilish ishlarini yanada kengaytirishda yangi bosqichni boshlab berdi desak, mubolag’a bo’lmaydi. Mumtoz milliy ma’naviy merosimiz shu qadar sermazmun va badiiy barkamolki, unda tarannum etilgan ma’naviy qadriyatlardan har bir avlod o’z zamonasi taqozosiga ko’ra bahramand bo’laveradi. Shu ma’noda har bir davr uchun muhim ma’naviy manfaat bera olishga qodir ijod sohibasi bo’lgan Uvaysiy asarlarini bugungi kun adabiyotshunosligi talab va mezonlar asosida tadqiq etish mutaxassislar oldida turgan dolzarb masalalardandir. Mazkur vazifaning nechog’lik muhimligi Uvaysiy

¹ Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent.: O’zbekiston, 2016. 75-bet.

hayoti va ijodiga oid jiddiy tadqiqotlarning aksariyat qismi XX asrda amalga oshirilganligi va tabiiyki ularda sho'raviy mafkuraning salbiy ta'siri o'z izini qoldirganligini e'tiborga oladigan bo'lsak, yanada chuqurroq anglashiladi. Ta'kidlanganidek, istiqlolga qadar yaratilgan tadqiqotlar singari Uvaysiy ijodiga bag'ishlangan ishlarda ham shoira she'rlari mafkura nuqtai nazardan tahlil qilingan. Bu esa bugungi kun o'quvchilarida Uvaysiy lirk merosi haqida tor, bir tomonlama tasavvur hosil bo'lishiga olib keladi. Jahon otin Uvaysiy yangilikka intiluvchan, badiiy mahorati yuksak shoira bo'lgan. Shoira lirkasiga xos yuksak umuminsoniy g'oyalar, qadryatlar mujassamlangan asarlar mohiyatini chuqr anglab yetish bir tomondan mumtoz matn namunasi Uvaysiy she'riyatini an'anaviy Sharq mumtoz poetikasi qonuniyatları, ikkinchi tomondan esa jahon va milliy adabiyotshunoslikda barqarorlashib borayotgan zamonaviy metodologik yondashuvlar asosida tekshirishni taqozo etadi. Ayni maqsadni nazarda tutuvchi "Uvaysiy lirkasi poetikasi" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyamiz orqali ko'tarilgan ilmiy muammolar shu tadqiqotning dolzarbliги ana shu jihat bilan ham belgilanadi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Jahon otin Uvaysiy lirk merosining hozirgi kunga qadar nashrlari mazkur dissertatsiyaning obyekti hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti Jahon otin Uvaysiy lirkasi poetikasi tashkil etadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Biz mazkur magistrlik dissertatsiyamiz orqali Jahon otin Uvaysiy she'riyatini a'nanaviy va jahon metodologik tamoyillar asosida o'rganishni maqsad qildik. Bu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- Uvaysiy tarjimayi holini adabiyotshunoslikning so'nggi yutuq va ma'lumotlari asosida umumlashtirish. Jahon otin Uvaysiyning XIX asr Qo'qon adabiy muhitida egallagan o'ziga xos mavqeyi va o'rniga baho berish.
- ilmiy jihatdan tasniflash, devonlarining nusxalari haqidagi ma'lumotlarni qiyoslash;

- Uvaysiy devonining janr tarkibini belgilash asnosida lirkasiga xos bo'lgan janrlar mavqeyini belgilash;
- Uvaysiy she'riyatida g'azal janri poetikasi bilan bog'liq masalalarni o'rganish;
- Uvaysiy muxammaslarining g'oyaviy-badiiy o'ziga xosliklarini tadqiq etish;
- Uvaysiy tarji'band va tarkibbandlaridagi poetik talqin qirralarini o'rganish orqali uning mazkur janrning o'zbek adabiyoti tarixi taraqqiyotiga qo'shgan xizmatlarini asoslash;
- Uvaysiy lirkasining yetakchi badiiy tasvir vositalarini aniqlash;
- Uvaysiy lirkasining vazn va qofiya xususiyatlarini tahlilga tortish;
- Uvaysiy lirkasidagi poetik talqin va badiiy mahorat yuzasidan umumiyligi xulosalarga kelish orqali uning o'zbek mumtoz adabiyotida tutgan o'rniiga baho berish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

- Uvaysiy tarjimayi holi adabiyotshunoslikning so'nggi yutuq va ma'lumotlari asosida mumlashtirish orqali Qo'qon adabiy muhitida egallagan o'ziga xos mavqeyiga baho berildi.
- Uvaysiy lirk merosining hajmi va janr tarkibi qiyoslash natijasida aniqlandi.
- Uvaysiy g'azallari mavzu jihatdan tasniflandi.
- Shoira muxammaslari, tarji'band va tarkibbandlari birinchi marta jadvali tuzildi va sharhlandi.
- Uvaysiy lirkasining yetakchi badiiy tasvir vositalari qofiya va vazn xususiyatlari nuqtai nazaridan yangi qirralari ochib berildi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Jahon otin Uvaysiy lirk merosi Sharq she'riyati tamoyillari mezonlariga asoslangan. Uvaysiy shu an'analar doirasida yangi g'oya va ifoda talqinlarini yaratgan.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi. Uvaysiy hayoti va ijodiga oid ma'lumotlarning ilk manbai uning biografik xarakterdagi o'z asarlari, shoira yashagan va undan keyingi davrda yaratilgan ayrim tazkiralari, shuningdek, hozirda

Marg'ilonda yashayotgan qarindosh-urug'lari xotiralardir. Uvaysiy yashagan davr adabiy hayoti haqida ma'lumot beruvchi Fazliy Namangoniyning "Majmuat ush-shoiron" tazkirasida ham shoira faoliyatiga munosabat bildiriladi. Shoira ijodini izchil ilmiy yo'nalishda o'rganish 30-yillarda boshlangan. Cho'lpon "Yorqin turmush" jurnalining 1933-yil 3-sonida "Uvaysiy" maqolasini e'lon qildi. Shoiraning she'rlari "O'zbek adabiyoti xrestomatiyasi", "O'zbek poeziyası ontologiyası"² kitoblarida chop etildi. Uvaysiy ijodini o'rganish 60-yillarda yangi bosqichga ko'tarildi. Shoira asarlari alohida devon holida nashr etildi³. Bir qancha ilmiy tadqiqod ishlari amalga oshirildi. Jumladan, T. Jalolovning "O'zbek shoiralari"⁴, A. Qayumovning "Qo'qon adabiy muhiti"⁵, E. Ibrohimovaning "Uvaysiy"⁶ risolalarini e'tirof etish mumkin. 80-yillarda yaratilgan I. Haqqulovning "Uvaysiy she'riyati"⁷ risolasi ham diqqatga sazovor.

Uvaysiy hayoti va ijodiga oid tadqiqotlarning mazkur qisqacha tavsifidan ayonki, ularning deyarli barchasi mustaqillikdan avval amalga oshirilgan. Ular orasida I. Haqqulovning "Uvaysiy she'riyati" risolasi nisbatan holis ilmiy yondashuv asosida yaratilganini ta'kidlash joiz. Keyingi yillarda Uvaysiy ijodi bo'yicha yangicha yondashuvlarga asoslangan bir qator ilmiy maqolalar ham nashr etildi. Bular qatoriga S. Olimning "Ishq, oshiq, ma'shuq" risolasidagi "Uvaysiy Uvaysiyimi?"⁸, I. Adizovaning "Uvaysiy ijodida chiston janri", "Uvaysiy ijodida janrlar takomili", "Uvaysiy ijodida an'anaviylik", "Ul matoyi ramzga bozordurman ishqida", "Uvaysiy ijodida qofiyaning o'rni"⁹ singari maqolalarni kiritish mumkin.

² Qarang: Абдулкарим Фазлий Намангоний. Мажмуаи шоирон.: табдил ва тарма/ Тузувчи: Маҳмуд Ҳасаний. – Т.: Фан, 2018; Чўлпон. Увайсий. – Т.: Ёрқин турмуш, 1933. 3-сон; Ўзбек адабиёти хрестоматияси, III том / Тузувчи: Зоҳидов В. – Т.: Ўззадабийнашр, 1959. 600-б; Ўзбек поэзияси онтологияси, III том/Тузувчилар: Ёкубов X, Қосимов С, Султонова М, Мамажонова С. – Т.: Ўззадабийнашр, 1962. 508 б.

³ Увайсий. Девон.: Тузувчилар: А. Қаюмов, Э. Иброҳимова. – Т.: 1959.

⁴ Жалолов Т. Ўзбек шоирлари.: Т – F Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашиёти, 1970.

⁵ Қаюмов А. Қўқон адабий муҳити.:Т – Mumtoz so'z, 2010.

⁶ Ироҳимова Е. Увайсий. Ҳаёти ва ижоди. – Т.: 1963.

⁷ Ҳаққулов И. Увайсий шеърияти. – Т.:Фан, 1983.

⁸ Олимов С. Ишқ, ошиқ ва матьшук / Увайсий Увайсийими. – Тошкент: Ёзувчи, 2002. 88- б.

⁹ Qarang: Адизова И. Увайсий ижодида чистон жанри / Ўзбек тили ва адабиёти. – Т.: 2008, №2. 41-45-б; Адизова И. Увайсий ижодида жанрлар такомили/Рисола. – Т.: 2011, 6-б; Адизова И. Увайсий ижодида анъанавийлик /Тил ва адабиёт таълими. – Т.: 2011, №3. 34-36-б; Адизова И. Ул матойи рамзга бозордурман

Ko'rinaridiki, Uvaysiy shaxsiyati va adabiy merosi mustaqillikdan keyingi davr ilmiy talablar asosida yaxlit monografik tadqiqot yaratish o'zbek adabiyotshunosligidagi o'z ijrosini kutib turgan vazifalardandir. Bizning Uvaysiy lirkasidagi poetik talqin masalalariga bag'ishlangan ishimiz bu yo'ldagi baholi qudrat qo'yilgan qadamdir.

Bugungi kunda o'quvchilar, talabalar Uvaysiy ijodini o'rganish jarayonida sovetlar davrida qilingan tadqiqotlarga murojaat qiladilar. O'tgan asrning ikkinchi yarmida E. Ibrohimova, I. Haqqulov, T. Jalolov, M. Qodirovalar shoira hayoti va lirk merosi bo'yicha turli jihatdan tadqiqot ishlarini olib borganlar. Ularda ilmiy, asosli faktlar bilan birgalikda o'sha davrdagi ko'plab asarlar tadqiqi singari shoira she'rlari ham mafkura nuqtai nazardan tahlil qilingan. Bu esa bugungi kun o'quvchilarida Uvaysiy lirk merosi haqida tor tasavvur hosil bo'lishiga olib keladi. Shuningdek, Jahon otin Uvaysiy yangilikka intiluvchan, badiiy mahorati yuksak shoira bo'lgan. Shoira lirkasida nafaqat bugungi davr, balki butun insoniyat asri uchun muhim umuminsoniy g'oyalar, qadriyatlar mujassamlangan yana ko'plab she'rlari o'z tadqiqini kutib turubdi. Chuqur va salmoqli mazmunga ega bu mumtoz lirk asarlarni hamma ham birdek tushuna olmaydi. Bu esa ayni paytda shoira ijodini mazmun va poetik nuqtai nazardan bugungi ilm-fan davri talablari asosida mukammal va holis tahlil va talqin qilishni, hali tadqiq etilmagan she'rlarini sharhlab o'quvchilarga taqdim etish kerakligini taqozo qiladi. Yuqorida qayd etilgan faktlar tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Tadqiqot mavzusini yoritishda biografik, formal, tarixiy-madaniy, struktural metodlardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Mazkur tadqiqod ishimiz o'zbek adabiyoti tarixidagi Uvaysiy nomi va adabiy merosi bilan bog'liq ilmiy tasavvurni kengaytiradi. Shuningdek, shoira lirk merosi bo'yicha qilingan

ишида /Шарқ юлдзузи. – Т.: 2013, №3. 172-75-б; Адизова И. Увайсий ижодида кофиянинг ўрни / Ўзбек тили ва адабиёти. – Т.: 2014, №2. 55-50-6.

ilmiy, amaliy tadqiqod ishlarini yaxlit holda umumlashtirishga, va ilmiy nazariy jihatdan to'ldirishga xizmat qiladi.

Ishning amaliy ahamiyati shundan iboratki, tadqiqot natijalari quyidagi holatlarda qo'llanishi mumkin: Mazkur dissertatsiyamizdagi materiallar hamda ilmiy nazariy xulosalardan umumta'lim maktablarida Jahon otin Uvaysiy hayoti va ijodini o'rghanish jarayonida, oliy o'quv yurtlarida o'zbek adabiyoti tarixi, mumtoz badiiy asar tahlili asoslari fanlari doirasida shoira hayoti va lirik merosiga bag'ishlangan ma'ruza va seminar mashg'ulotlarni olib borishda foydalanish mumkun.

Magistrlik dissertatsiyasining tuzilishi. Dissertatsiya kirish, 7 faslni o'z ichiga olgan 3 asosiy bob, xulosalar va adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Umumiylajmi 93 sahifa.

1 bob. Uvaysiy va uning adabiy me’rosi

1.1. Uvaysiyning hayot va ijod yo’li Qo’qon adabiy muhiti kontekstida

Jahon otin Uvaysiy XVIII asr o’zbek mumtoz she’riyati rivojiga o’zining salmoqli hissasini qo’shgan yetuk ijodkorlardan biri hisoblanadi. Shuningdek u o’zbek adabiyoti tarixida XVIII asrda ya’ni bundan II asr muqaddam birinchilardan bo’lib saroy shoirlari orasiga kirib, komil huquqqa ega bo’lgan ayol shoiradir. Qo’qon xonligida (o’zbek adabiyoti tarixida) ayol shoiralar silsilasining vujudga kelishi ham aynan Uvaysiy nomi bilan boshlanadi.

Jahon otin hayoti va ijodiy faoliyati to’g’risidagi ma’lumotlar o’sha davr tazkiralaridan Fazliy Namongoniyning “Majmuatush-shuar”¹⁰, hozirda Marg’ilonda istiqomat qilayotgan shoiraning avlodlari estaliklari, shogirdlari asarlari, Po’latjon Qayyumiyning “Tazkirayi Qayyumi” kitobi, o’zining asarlari, shuningdek, hamyurtlari tomonidan yozib olingan rivoyatlar orqali bizga qadar yetib kelgan. Jumladan, “Tazkirayi Qayyumi”da quyidagicha ma’lumotlar keltiriladi: “Marg’ilonli shoir va hofiz Siddiqbobo Fayziyning qizidur. Adabiy sohaga otasi tortmishdur. Otasi oilaviy tumushi buzilgan qizini do’sti – mansabdar shaxs Abulqosin Otaliq (shoir Vazir) orqali Xo’qandga yuborgan. Otaliqning oilasi Ark atrofida bo’lganidan shunda xizmat qilib yurgan. Bir-ikki yildan so’ngra shoiraligi bilan shuhratlandi va ovoza xonning haram saroyiga ma’lum bo’lgach, Mohlaroyim o’z huzuriga qabul etdi va unga mushfiqlik qilib, haramda o’ziga munosib bir o’rin ko’rsatdi”¹¹.

Uvaysiy XVIII asrning 80-yillarida Marg’ilonning Childuxtaron mahallasida tug’ilgan. Ma’rifatli oilada tarbiya olgan. Otasi Siddiq bobo madrasa ta’limini olgan, adabiyot va musiqa ta’limidan xabardor kishi bo’lgan. U fors-tojik va o’zbek tillarida she’r yozganidan mahalliy aholi orasida Hofiz bobo nomi bilan shuhrat topgan. Uvaysiyning onasi (Chinnibibi) ham savodli ayollardan bo’lib, o’z mahallasida maktabdorlik qilgan. Uvaysiy yoshligidanoq oilada savod chiqargan,

¹⁰ Qarang: Абдулкарим Фазлий Намангоний. Мажмуаи шоирон.: табдил ва тарма/ Тузувчи: Маҳмуд Ҳасаний. – Т.: Фан, 2018.

¹¹ Қайомов П. Тазкираи Қайомий. – Т.: 1983. 159-6.

ko'p kitob mutolaa qilgan, otasi va akasidan dutor va tanbur chalishni o'rgangan. Fors-tojik va arab tillarini, badiiy ijod qoidalarini otasidan o'rgangan. Otasi vafotidan so'ng Jahon otinni Hojixon ismli kishiga turmushga beradilar. U Muhammadxon va Quyoshxon ismli farzandlar ko'radi. Turmush o'rtog'idan erta beva qolib, farzandlarini o'zi tarbiyalaydi va keyingi hayotini she'riyatga bag'ishlaydi. Ayniqsa, Nodira himoyati va homiyligida kechgan yillari unga munosib shuhrat keltirgan. U haramdagi murabbiy va ustoz shoiralardan biri sifatida hurmat qozongan. Uning Nodira, shuningdek, ta'bi nazmi bor ayollar – Ko'ka bibi, Qo'zixon, Ulfat begimlar orasida do'stona ustod-u shogirtlik, adabiy maslakdoshlik munosabatlari bo'lganligi uning "kafshim yo'qoldi sandamu?"¹² radifli hajviy g'azali orqali bizga ma'lum. Shuningdek, shoiraning "Iyd o'ldi bu kunki ey, shahanshoh"¹³, "Bu kun ey, do'stlar, farzandi jononimni sog'indim" (Увайсий. Мазмун маъдани, 111-б.), "Muarriz tahsil aylay, shoyad ul sohibqiron so'rsa" (Увайсий. Мазмун маъдани, 154-б.) g'azallari, "Qil amon yo rab, adular mojarosidin meni" (Увайсий. Мазмун маъдани, 204-б.) tarji'bandi va dostonlari (hali nashr etilmagan) ham uning hayoti va faoliyati to'g'risida birmuncha ma'lumotlar beradi.

Qo'qon taxtiga o'tirgan Umarxon Nodira iltimosiga binoan Uvaysiyni ikki farzandi bilan Qo'qonga ko'chirtirganligi, Uvaysiy bir necha yildan so'ng saroydan alohida hovliga ko'chib chiqqanligi, keyin mahallada she'riyat va ma'rifat, musiqa ta'limi borasida murabbiylik qilib shogirdlar tarbiyalaganligi, xususan, Ojiza, Jahon bibi, Hayot, Baqo, Dilorom ismli shogirlari bo'lganligi manbaalarda qayd etilgan.

Adabiyotshunos To'xtasin Jalolov ko'plab ayol ijodkorlar hayoti va ijodiy faoliyatini yoritishga bag'ishlangan "O'zbek shoiralari" kitobida Jahon otin Uvaysiyga ham alohida sahifalar ajratgan bo'lib, uning hayoti va faoliyatini yoritishda ko'proq shoira hamyurtlari tomonidan aytilgan rivoyatlarga tayanadi.

¹² Увайсий. Мазмун маъдани.: шеърлар/Тузувчилар: А.Турдиалиев, У. Нематов. – Т.: Akademnashr, 2010. 138-б. (Keyingi o'rnlarda ushbu manbaa matn yonida qavs ichida beriladi)

¹³ Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. –Т.: Ўқитувчи, 1967. 337-б.

Jumladan, Jahon otinning qanday qilib saroy adabiy muhitiga kirib kelganligini 1930-yilda dramaturg G'ulom Zufariydan eshitgan quyidagi rivoyati asosida yoritib beradi: "Uvaysiyning ismi Jahon bo'lib, marg'ilonlik olim va fozil bir zotning qizi ekan. Jahon yoshligidayoq xat-savodli bo'lib, she'riyatga mayl ko'rsatadi. Tez fursatda chig'atoy(o'zbek) fors klassiklarini puxta o'rganib, shoir bo'lib yetishadi. Ikki farzandi bilan beva qoladi. So'ng she'r yozish bilan mashg'ul bo'ladi. U o'z she'rlarini Uvaysiy taxallusi bilan yozar edi.

Umarxon saroyida juda ko'p shoirlar to'plangani va ular orasidagi adabiy munozaralar haqidagi dovrug' Marg'ilongacha yoyilib, bu xabar Uvaysiyning ham qulog'iga yetadi. Adabiy suhbatlarga bo'lgan tashnalik, shoiralik mahoratini peshqadam shoirlar oldida sinab ko'rish xohishi Uvaysiyning osoyishtaligini buzadi. Nihoyat u bu istagini amalga oshirish niyatida Qo'qonga borish uchun otasidan ruxsat so'raydi. Otasi qizining adabiyotga bo'lgan rag'batini sindirmaslik uchun uning talabiga rozi bo'lib, uni bir maktub bilan qo'qonlik bir do'stining uyiga yuboradi. Uvaysiy bu do'st xonadonida bir necha kun istiqomat qilib, saroy shoirlari to'planib, adabiy suhbatlar o'tkazadigan vaqtlnarni aniq bilib oladi. Kunlardan bir kun Uvaysiy ana shu qo'qonlik homiysining maslahati bilan juldur paranji yopinib, kampir qiyofasida Umarxon saroyiga boradi. Uni o'rda soqchilar to'xtatib, nima muddao bilan kelganini so'raydilar. Soqchilar bu kampirga shoh va shoirlar majlisi qayerda-yu, sen qayerda maqomida muomala qilib, majlisga kiritmaydilar. Shunda soqchiga bir qog'oz berib, uni podshohga berishiga iltimos qiladi. Soqchi saroyga kirib, podshohga voqeani batafsil hikoya qilib kampir bergen qog'ozni topshiradi. Umarxon bu buklangan qog'ozni ochib qarasa, u g'azal ekan. Shoh uni yuzlab shoirlarga baland ovoz bilan o'qib beradi. Mening taxminimcha hammaga manzur bo'lgan bu ajoyib g'azal Uvaysiyning:

"Zaboningni keturgil ey, ey, shakarlab to'ti guftora,

Nechunkim marhamat o'lsun necha mendek dil afkora"

deb boshlanadigan g'azali bo'lsa kerak. Shundan so'ng Umarxon soqchiga kampirni olib kelishni buyuradi. Soqchi darhol kampirni boshlab keladi. Ahli

majlis kampirning g'azaliga g'oyat yuksak baho berib maqtaydi. Shunda Uvaysiy nishonga urganini fahmlab, juldur paranjini sekin boshidan olib tashlaydi... Umarxon va saroy shoirlari aql bovar qilmaydigan mo'jizani ko'radilar. Ularning qarshisida kampir emas, sohibjamol bir juvon turar edi. Umarxon va saroy shoirlari bu juvonning himmat va jasoratiga qoyil qoladilar. Shundan keyin Umarxon Uvaysiyni O'rdadagi xonim oyimlarga murabbiy qilib tayinlaydi va unga alohida joy beradi. Shu tariqa Uvaysiy o'z zamonidagi mashhur shoirlar qatorida muqim o'rinni olib, saroy shoirlarining adabiy munozaralariga komil huquqli a'zo sifatida qatnashar ekan”¹⁴. T. Jalolov shoiraning saroy hayoti bilan bog'liq yana bir rivoyatni keltiradiki, unda Uvaysiy Nodiraga she'r ilmini puxta o'rgatib Umarxon va Nodiraning taxsiniga sazovor bo'lishi va saroyda hurmat qozonishi bayoni beriladi. Nodira vafotidan so'ng shoira ota yurti Marg'ilonga qaytadi.

Uvaysiy vafotidan so'ng uning sobiq talabalaridan shoira Ojiza marsiya yozgan bo'lib, “Fozilai asr” so'zlaridan 1850 sanasi chiqadi:

Yer yuzin yopgach, ul fozilai asrning o'di,

Soli favtini xirad piri dedi: “Fozilai asr”

Bundan Jahon otin Uvaysiy 1790-1850-yillar oralig'ida oltmish-oltmish bir yillar chamasi umr ko'rganligi ma'lum bo'ladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, o'zbek adabiyoti tarixida shoiralarning silsilasi Jahon otin Uvaysiy nomi bilan bog'liq bo'lib, Uvaysiygacha o'zbek shoiralarining asarlari adabiyotimiz tarixida qayd etilmagan. Qo'qon adabiy muhitida bir guruh shoiralarga ustozlik qilgan Jahon otin Uvaysiy O'zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotiga o'zining salmoqli hissasini qo'sha oldi. Ayollar tasavvufi tushunchasini yangi pog'onaga olib chiqdi. Badiiyat jihatdan pishiq go'zal sheriyati nafaqat shoiralar uchun balki shoirlar uchun ham mahorat maktabi sifatida xizmat qilib kelmoqda.

¹⁴ Жалолов Т. Ўзбек шоиралари. –Т.: F Фулом номидаги бадиий адабиёт нашириёти, 1970. 41-46-б.

1.2. Uvaysiy adabiy merosining ilmiy tavsifi

XVIII asr Qo'qon adabiy muhiti she'riyatini Jahon otin Uvaysiy lirkasisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Uning lirik merosi yuksak gumanistik g'oyalar, xususan, Sharq tasavvuf falsafasi bilan sug'orilgan. U o'zining turli janrdagi mazmunan mukammal lirik merosi bilan o'sha davr she'riyati rivojiga sezilarli darajada o'z hissasini qo'sha oldi.

Uvaysiy adabiy merosi bizga qadar qancha hajmda yetib kelganligi bir necha manbalar – V. Abdullayevning “O'zbek adabiyoti tarixi”¹⁵, I. Haqqulovning “Uvaysiy she'riyati”¹⁶, R. Orzibekovning “O'zbek adabiyoti tarixi”¹⁷, I. Qosimov va O. Valixonovlar tomonidan nashrga tayyorlangan Uvaysiyning “Ko'ngil gulzori” to'plami¹⁸, I. Adizovaning “Mumtoz o'zbek adabiyoti tarixi”¹⁹, M. Qodirovaning “O'zbek shoiralari bayozi”²⁰ va boshqalar orqali ma'lum. Jumladan, V. Abdullayevning “O'zbek adabiyoti tarixi” (kitob 1967-yilda nashr qilingan D. Nazarova) kitobida quyidagicha ma'lumotlar keltiriladi: “Yaqinda Uvaysiyning 403 betlik devoni topildi. Bu devon Uvaysiyning chevarasi Xoljon otin (Mag'ziy) dan Andijon pedagogika instituti kutubxonasiga olingan bo'lib, u 1857-1858-yillar orasida Muhammadshoh Yunusxon tomonidan ko'chirilgandir. Hozir Beruniy nomidagi institutning qo'lyozmalar fondida (1837-sh) saqlanayotgan bu “Devon”da 269 g'azal, 29 muxammas, 55 musaddas, 1 murabba va “Karbolonoma” yoki “Dostoni Hasan va Husayn”, “Voqeoti Muhammad Alixon” nomidagi asarlar bor”²¹. Ushbu ma'lumotlar yuqorida sanab o'tilgan manbalarning barchasida keltirilgan. Shuningdek, Uvaysiy “Ko'ngil gulzori” to'plami va so'zboshi muallifi A. Valixonov quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: “Devon”ni tuzishda shoiraning chevarasi Xoljon otinning ya'ni Mag'ziyning qo'lida saqlangan va keyinchalik u Andijon davlat pedagogika institutiga taqdim etilgan

¹⁵ Абдуллаев. В. Ўзбек адабиёти тарихи – Т.: Ўқитувчи, 1967. 337-б.

¹⁶ И. Ҳаққулов. Увайсий шеърияти – Т.: Фан, 1982. 108-б.

¹⁷ Orzibekov. R. O'zbek adabiyoti tarixi – T.:O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. 100-b.

¹⁸ Увайсий. Кўнил гулзори – Т.: Адбиёт ва санъат нашриёти, 1983. 272-б.

¹⁹ Адизова И. Мумтоз ўзбек адаиёти тарихи – Т.: Фан, 2009. 248-б.

²⁰ Увайсий, Нодира. Ўзбек шоиралари баёзи /Тузувчи: Қодирова М. – Т.: Фан, 1993. 250-б.

²¹ Абдуллаев. В. Ўзбек адабиёти тарихи – Т.: Ўқитувчи, 1967. 332-б.

asarlardan foydalanildi. U kitoblar institut kutubxonasida 138048, 138049, 138050 inventar nomerlari bilan saqlanmoqda. Ulardan biri shoira Mag'ziy qalamiga mansub (138050) bo'lib, kamchiliklari ko'proq. Unda 11256 misra she'r bor. Yana bir (138049) go'zal nasta'liq xati bilan ko'chirilgan, kotibi noma'lum. Unda 4186 misra bor. Uchinchisi 161 betdan iborat²². “O'zbek shoiralari bayozi” to'plami nashri va so'zboshi muallifi M. Qodirova bergan ma'lumotlarga ham nazar tashlasak: “...1960-yillarda H. Razzoqov va A. Saydaliyevlar tomondan Marhamat rayonida istiqomat qiluvchi Uvaysiyning avlodlari qo'lidan topilgan uchta devoni Andijon Davlat pedagogika oligohi kutubxonasida saqlanmoqda. Devonlardan o'rin olgan asarlar hajmi turlicha bo'lib, ular bir butun holda bir-birini to'ldiradi. Shoiraning devonlarida uning g'azal, muxammas, musaddas, musamman, murabba', mustazod, masnaviy ruboiy, qit'a, tuyuq va fardlari jamlangan bo'lib, ular o'n ming misradan ortiqroqdir²³. Mazkur ma'lumotlar bizga qadar yetib kelgan Uvaysiy lirikasining hajmi to'g'risida quyidagicha xulosalar chiqarishimizga asos beradi: Uvaysiyning bugungi kunda ma'lum bo'lган devoni to'rtta bo'lib, bиринчи topilgan devon beshta janrni o'z ichiga oladi: g'azal, muxammas, musaddas, murabba, doston. Keyinchalik topilgan uchta devoni tarkibida esa o'nta janr mavjud: g'azal, muxammas, musamman, murabba, mustazod masnaviy, ruboiy, qit'a tuyuq va fard²⁴.

Biz Uvaysiyning bugungi kunga qadar nashr etilgan adabiy merosini o'rganish natijasida, hozirgi kunda o'quvchilar qo'liga yetib kelgan shoira lirk me'rosining hajmini aniqlashga muvaffaq bo'ldik. Bunda bizga Uvaysiy lirk merosini bir necha nashrlari – Uvaysiy devoni, “Ko'ngil gulzori”, “O'zbek shoiralari bayozi”, “Uvaysiy she'riyatidan”, qo'shimcha sifatida R. Orzibekovning “O'zbek adabiyoti tarixi”, I. Adizovaning “O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi”²⁵

²² Увайсий. Кўнил гулзори – Т.: Адбиёт ва санъат нашриёти, 1983. Б-б.

²³ Увайсий Нодира. Ўзбек шоиралари баёзи / Масъул муҳаррир ва сўзбоши муаллифи: М. Кодирова – Т.: Фан, 1993. 13-б.

²⁴ M. Qodirova “O'zbek shoiralari bayozi” to'plamida Uvaysiy tarji'bandlarini musaddas deb beradi. Shuning uchun uni janrlar sanog'iga kiritmadik.

²⁵ Yuqorida barchasining manbalari keltirib o'tilgan.

kabilar manbaa bo'lib xizmat qildi. Quyidagi jadvalda bir-birida takrorlanmagan she'rlar soni keltirilgan:

Tadqiq obyekti ga olingan nashrlar	g'a-zal	Mu-xam mas	Mu-sad- mas	Mu-rab- das	Mu-sal- ba	Mu-ta- las	Mus-zod	Tar-jii'- ban d	Tar-kib- ban d	Mas-naviy	Tu-yuq	Chis-ton	Fard
Devon. 1959- yil	218	24	1			1							
"Maz-mun ma'da-ni" 2010- yil.	84	4					1	4	1			9	
"Ko'-ngil gulzo-ri" 1983- yil.	7	1										1	
"O'zbek shoira-lari bayozi" 1993- yil.	4	1		1						1	2		4

“Uvay-siy she’-riyati-dan” 1980-yil.	2												1
R. Orzi-bekov. O’zbek adabi-yoti tarixi, 2006-yil.		1											2
I. Adi-zova. Mum-toz o’zbek adabi-yoti tarixi, 2009-yil.													
Jami	315	31	1	1	1	1	4	1	1	2	13	4	

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Jahon otin Uvaysiy lirik merosi yuksak gumanistik g'oyalar, xususan, Sharq tasavvuf falsafasi bilan sug'orilgan. Shoiraning bugungi kunda ma'lum bo'lган devoni 4 ta bo'lib, Muhammad Yusuf xattot tomonidan ko'chirilgan birinchi devoni 5 ta janrni o'z ichiga oladi. Keyinchalik topilgan 3 ta devonida esa 10 ta janrdagi sherlar mavjud. Uvaysiy hajman salmoqli turli janrdagi mazmunan mukammal ijod mahsuli bilan o'sha davr she'riyati rivojiga sezilarli darajada o'z hissasini qo'sha oldi. O'zigacha bo'lган mumtoz adabiy an'analarni o'rgangan holda munosib tarzda yana takomollashtirib, davom ettirdi. Shoira Uvaysiy salmoqli bu lirik merosi bilan mumtoz klassiklar qatoridan munosib o'z o'rniga ega bo'la oldi.

2-bob: Uvaysiy lirikasi poetik talqin nuqtayi nazaridan

2.1. Uvaysiy g’azallari poetikasi

Uvaysiy ijodida eng ko’p qo’llanilgan janr g’azaldir. Ma’lumki, g’azal arabcha “oshiqona so’z” , “ishq izhor qilish” ma’nolarini bildirib, a-a, b-a, d-a, e-a... tarzida qofiyalanuvchi, 3 baytdan 19 baytgacha hajmda bo’lgan baytli she’r shaklidir. Adabiyotshunoslikda g’azal janri haqida ilk ma’lumot Shams Qays Roziyning “ Al-Mo’jam” asarida (XIII) keltirilgan. Olim bunda g’azalning asosiy lug’aviy ma’nosи ayollarga muhabbat qo’yish bilan bog’liq ekanligiga e’tibor qaratadi. G’azalning dastlabki namunalari VIII-IX asrlarda arab adabiyotida paydo bo’lgan. Fors-tojik adabiyotida ilk g’azal yozgan shoir sifatida Ro’dakiy tilga olinadi. O’zbek adabiyotida esa dastlabki g’azal Rabg’uziyning “Qissasi Rabg’uziy” asarida(XIV asr) uchraydi. G’azalning dostonlar tarkibida uchrashi ilk bor Xorazmiyning “Muhabbatnoma”sidan (1353-54) boshlanadi²⁶.

O’zbek adabiyotida 5-10 baytli g’azallar ko’p uchraydi. Juhon otin Uvaysiy g’azallari asosan 4 baytdan 12 baytgacha hajmda yaratilgan. Shoira g’azallari hajmini batafsil quyidagi jadvalda ko’rish mumkin:

Baytlar soni	G’azallar soni
4	4
5	27
6	34
7	175
8	26
9	28
10	8
11	11
12	2

²⁶Sh. Sirojiddinov, D. Yusupova, O. Davlatov . Navoiyshunoslik. – T.: Tamaddun, 294- b.

Jahon otin Uvaysiy g'azal janrini o'zigacha mavjud an'analarni davom ettirgan holda badiiyat jihatidan puxta, mazmunan yetuk namunalarni yarata oldi. Uvaysiy g'azallarini mavzusiga ko'ra shartli ravishda quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Irfoniy-ishqiy g'azallar;
2. Tasavvufiy-falsafiy mavzu ifodalangan g'azallar;
3. Hasbi-hol mazmuni ifodalangan g'azallar;
4. Hajviy g'azal;
5. Ijtimoiy mavzudagi g'azallar.

Biz Uvaysiyning mazkur yo'nalishlarga mansub eng xarakterli g'azallarini poetik talqin nuqtai nazaridan sharhlashni lozim topdik.

1. Ishqiy g'azallar. Shoiraning "judo" radifli g'azalida uning ishqiy-falsafiy qarashlari o'zining yaqqol badiiy ifodasini topgan.

Bo'ldi jon paydo anga har kim, bo'lur jondin judo

Kimki mehri yordin tonurkim, iymondin judo.

Tasavvuf she'riyatiga xos mazmun g'azal matla'sidayoq ko'zga tashlanadi. Kimning qalbida ilohiy ishq zuhur etsa, bu dunyo mehri bilan bo'qliq barcha narsalar uni tark etadi. Hatto bu olamda uning moddiy tirikligini ta'minlab turuvchi jonining ham unga qizig'i qolmaydi. Chunki u, o'lmas, tiganmas jonnini topgan bo'ladi-da! Agar kimda-kim bu vasl – haqiqat manziliga eltuvchi yo'lidan qaytsa, u insonning eng qimmatli narsasidan – iymonidan ayrıladı.

Tasavvuf adabiyotida butun olam, koinot Allohning qudratini ko'rsatib turuvchi ko'zgu deb ta'riflangan. Inson atrofga nazar solib, Allohning qudratini, uning jammoli nurini ko'rishi mumkin. Buni anglab yetish, muhabbatimizga eng munosib zot Alloh ishqini qalbga jo etish har bir insonning eng yuksak yutug'i

bo’lsa, bularni anglab turib vos kechishlik insonning eng ayanchli baxtsizligidir. Chunki iymon islam dinida musulmonning eng kerakli va butun umri davomida asrab, avaylashi kerak bo’lgan qimmatli narsasi hisoblanadi. Har bir banda iymoni bilan bu dunyodan o’tishni istaydi. Sababi iymondan judo bo’lishlik qilingan barcha amallarning yo’qqa chiqishidir. Quyidagi bayt ham mazkur fikrni davom ettiradi:

Kechdim ul sir bahridin, kechdim jahon ra’nosidin,

Ushlasang domon qil, ilkingni domondin judo.

Lirk qahramon “dengiz singari bu olamning barcha sirlariga, jahon go’zalliklariga qo’l siltadim – kechdim deydi” va nasihat sifatida: “agar etak ushlamoqchi bo’lsang, mayli, haqiqat etagidan tut, lekin qo’lingni dunyo etagidan bo’shat”, deydi.

Orzu diydori sen, g’arq et taalluqotni,

Ko’z demaslar, bir nafas to bo’lsa giryondin judo.

Oshiq nima uchun ko’z yoshlar to’kadi? Chunki u hijronda. Tasavvuf ta’limotida oshiq uchun bu dunyo ayriliq – hijron makoni. Uni Alloh va banda o’rtasida parda ham deyiladi. Shuningdek, ko’z yoshlar oshiq qalbini noshoyista narsalardan poklaydi. Shu sababli oshiq: “Yor vasli orzusida dunyo bilan bog’liq barcha narsalarni ko’mgin. Agar ko’zlaring bir nafas yosh to’kishdan to’xtasa, bu haqiqiy oshiqning ko’zları emas”, deydi.

Til agar mazkurlig’da o’lsa nodonlig’ bu dam,

Korvon yo’ldin adashg’ay mohi tobondin judo.

Baytda irfoniy mazmun tashbih va tamsil san’atlari vositasida yuzaga chiqqan. Oshiq manzili tomon ketayotgan karvonga, ma’shuq esa karvon yo’lini yorituvchi oyga mengzalgan. Oshiq qachon mohi tobon kabi yorini yo’qotishi mumkin? – Yorni zikr etmasa. Tasavvuf talqiniga ko’ra zikr oshiq qalbini dunyoviy hoy-havaslardan poklaydi, natijada oshiq ishq yo’lida sobit borib, vaslga tuyassar

bo'ladi. Baytning mazmuni esa quyidagicha: "Agar tilim yor zikrini aytishdan bir nafas to'xtaydigan bo'lsa, xuddi oy yo'q bo'lib qolganda karvon yo'lidan adashgani kabi yo'limni yo'qotaman".

Laylivashlar furqatida bulhavaslar ko'p erur,

Majnun ermas gar esa vasl ichra hijrondin judo.

Baytda nega "bulhavaslar" (oshiqlar) bilan birga "laylivashlar" (ma'shuqlar) ham ko'plikda ifodalangan. Avvalgi baytlarda Alloh ishqiga haqida so'z ketayotgan edi. Ma'shuq – Alloh yagona-ku. Buning javobini quyidagicha izohlash mumkin: Ma'lumki, Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida ishqni uch darajaga ajratadi: avom ishqiga, xoslar ishqiga, siddiqlar ishqiga. Hazrat Navoiy avom ishqiga haqida "zikri tarki adabdur va bayoni behijobliqqa sabab",²⁷ deydi. Shuningdek, uning ijodida majoziy ishq haqiqiy ishqqa ko'priq degan g'oya ilgari suriladi. Tasavvuf ta'limotiga ham ma'joziy va haqiqiy ishq qabul qilingan. Yuqoridagi jumlada ishqning mazkur ikki ahli nazarda tutilgan. Ikkinchisi misrada kelgan "hijron" so'ziga ham izoh berib o'tsak: Ma'lumki, hijronda oshiq o'rstanadi, azoblanadi, izzirob chekadi, va ishqda toblanadi. Natijada u ruhiy tozarib, darjasini yuksalib boradi. Bu oshiqlar uchun mashaqqatli sinov hamdir. Baytning mazmuni quyidagicha: Ishq yo'lida oshiqlar ko'p, lekin ular hijronda toblanmas ekan Majnun – haqiqiy oshiq bo'la olmaydilar.

G'azalning ushbu 6-baytiga qadar quyidagi holatlar ayon bo'ladi:

1-bayt: Ishqi ilohiy ko'ngilda paydo bo'lishi va o'zligidan ayrilishi; 2-bayt: Bu foniylardan ko'ngilni uzish; 3-bayt: Diydor yo'lida ko'z yoshlar bilan qalbni poklash; 4-bayt: Zikr aytib maqsadiga yetish; 5-bayt: Hijron oshiqni toblab Majnun darajasiga ko'tarishi.

G'azalning maqta'sini Uvaysiy lirikasi uchun xos xususiyat bo'lgan yuqoridagi baytlarni yakunlovchi, xulosalovchi bayt deyish mumkin. Uvaysiy yuqorida

²⁷ Алишер Навоий. Махбуб ул-кулуб: Қалблар севгиси / Масъул мухаррир ва сўзбоши муаллифи С. Фаниева. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1983. 52-б.

keltirilgan baytlarni haqiqatni ifoda etuvchi, iloh bilan bog'liq qimmatbaho gavharlar deb ataydi. Ana shu xazinalar makoni esa ko'ngli ekanligini faxrlanib xitob qiladi.

Bu haqiqat gavharig'a, Vaysiy, mahzandur ko'ngul,
Sabr miftohini qilma ko'hi dandondin judo.

Rus shoiri va tanqidchisi A. Blok shunday degan edi: “ Har qanday she'r matni bir necha so'z ustiga yoyilgan yopinchiqdir. O'sha so'zlar matnda xuddi yulduzlardek charaqlab, nur sochib turadi”. Darhaqiqat, mazkur g'azalga ham sinchiklab nazar tashlasak, har baytda mavzu mohiyatini ochib beruvchi kalit so'zlar borligining guvohi bo'lamiz. Ular: “jon,” “jonon”, “dunyodan ko'ngil uzish”, ‘ko'z yoshlar to'kish”, ‘zikr”, ‘hijron”, “sabr”.

Mazkur tushunchalar tasavvuf tariqati amaliyotining ma'lum marotib – darajalarini ifoda etuvchi istilohlar bo'lib, ya'ni solikni haqqa yetkazuvchi bosqichlar deyish ham mumkin. Uslubiy jihatdan g'azal ishqning ana shunday bosqichlarini bosib o'tib, ma'lum bir maqomga yetishgan oshiq Uvaysiyning bu yo'lga kirmoqchi bo'lganlar uchun yol-yo'riq, nasihat tarzida bayon etilgan.

G'azalda radif sifatida “judo” so'zi tanlangan, u asar tarkibida “ayrilish”, “mahrum bo'lismi” ma'nolarini ifodalab keladi. Qofiya sifatida esa jondin, iymondin, domondin, giryondin, tobondin, hijrondin, dandondin so'zlari tanlangan. Qofiyada raviy o'zak oxiridagi “n” tovushi bo'lib, ridfi asliyli mutlaq qofiya hisoblanadi. G'azal vazni ramali musammani mahzuf (ruknlari va taqt'i: foilotun foilotun foilotun foilun – V – – / – V – – / – V – – / – V –). O'quvchini mushohada chorlovchi, keng mazmunli fikrlarni og'ir, vazmin ohang bilan berilishi ta'sirchanlikni ta'minlagan. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, g'azal hazrat Navoiy ta'biri bilan aytganda “3. Siddiqlar ishq(haqiqiy ishq)“ini tarannum etuvchi benazir asardir.

2. Tasavvufiy falsafiylikning yorqin ifodasi bo'lgan g'azallardan biri sifatida quyidagi g'azalni keltirish mumkin:

Dunyoni bu kun davr ila davroni g'animat,

O'lturdi xaloyiqniki mehmoni g'animat.

To bulbuli mastona suxanrezni bul dam,

Ayvoni jahon bog'i gulistoni g'animat.

Bu shavkat-u sha'ningni xudoyim nasib etsun,

Davlat nigin, taxti Sulaymoni g'animat.

Umringni bahorida muhabbatni sug'org'il,

Ko'z mardumini giryai boroni g'animat.

Ochg'il ko'zing, ey dil, qilako'r vaqtı tomosho,

Ayyomi jahoni mohi toboni g'animat.

Fazliy bila ul g'unchai nashgufta ochilmish,

Sayri chamanı ham guli xandoni g'animat.

Vaysiyi gado, sen bukun o'ksitma sadoni,

Lutfila tarahhum yana ehsoni g'animat²⁸.

Dastlab tahlilni an'anaga zid ravishda qofiya va radifdan boshlasak. Chunki ular nafaqat poetik, balki mazmun jihatidan ham qimmatga ega. Shoira ijodinining ko'plab qirralarini atroflicha tadqiq etgan adabiyotshunos Iqboloy Adizova quyidagi fikrlarni bayon etgan: "Uvaysiy she'riyatida ham qofiya muhim vazifani bajaradi. Unda har bir baytda ifodalanayotgan fikrning yechimi mujassamlanadi. Qofiya o'qish bilan o'quvchi tasavvuri oydinlashib ketadi. Chunki qofiya faqat ohangdorlikni hosil qiluvchi so'zlar emas, balki ijodkor aytmoqchi bo'lган fikrning mag'zini jamlab beruvchi badiiy unsur hamdir"²⁹. Darhaqiqat, qofiya va radif g'azalni tashkil etuvchi muhim unsur sifatida mavzu va g'oyani o'zida

²⁸ Увайсий. Девон.: Тузувчилик: А. Каюмов, Э. Иброхимова. – Т.: 1959. 78-б.

²⁹ Адизова И. Увайсий шеъриятида кофия // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2014. – №2.

mujassamlashtira olishi Uvaysiy lirkasiga xos xususiyatlardandir. G'azalda radif sifatida tanlangan “g'animat” – biror sabab bilan qo'lga kirgan va qayta kirishi imkondan tashqariroq bo'lgan narsa yoki fursat ma'nosini ifodalaydi. Shu bilan birga noyob, o'tkinchi kabi ma'nolarini ham anglatadi. Baytlarni sintaktik tahlil qilsak, radif kesim vazifasida kelgan. Kesim esa gapning markazi hisoblanadi. Xo'sh, nimalar g'animat ekan? Kesimning yoniga egani olib kelamiz.

1. davr ila davroni (ega) g'animat (kesim),
xaloyiqniki, mehmoni (ega) g'animat (kesim).
2. bog'i gulistoni (ega) g'animat (kesim).
3. taxti (ega) Sulaymoni (aniqlovchi) g'animat (kesim).
4. giryai boroni (ega) g'animat (kesim).
5. mohi toboni (ega) g'animat (kesim).
6. guli (aniqlovchi) xandoni (ega) g'animat (kesim).
7. ehsoni (ega) g'animat (kesim).

Qofiya uchun ega, radif uchun kesim tanlangan. Bu jihat baytlarni nasriy bayonga yaqinlashtiradi. Endi qofiya va radifning mazmuniga nazar tashlaydigan bo'lsak, irfoniy-falsafiy g'oya mavjudligi anglashiladi. Biz g'azalni butunlay ko'zdan kechirmay turib, uning g'oyasi va mavzusi haqida tasavvurga ega bo'lamiz. Ular birinchi darajali bo'laklar ekanligini inobatga olsak, qolgan bo'laklar ularni to'ldirishga, aniqlashtirishga xizmat qiladi va shu jihatdan ular gapning markazi va mag'zini tashkil etadi.

Mumtoz poetikada har bir qofiyaning nomlari mavjud. Yuqorida keltirilgan qofiyalarda raviy “n” tovushi, raviydan oldin kelgan cho'ziq “o” unlisi ridfi asliy, raviydan keyin kelgan qisqa”i” unlisi majro, raviydan keyin so'z davom etganligi uchun mutlaq qofiya hisoblanib, u “ridfi asliyli mutlaq qofiya” deb ataladi. Endi g'azalning g'oyaviy tahliliga o'tsak. Falsafiy mohiyat g'azal matla'sidayoq ko'zga tashlanadi.

Dunyoni bu kun davr ila davroni g'animat,

O'lturdi xaloyiqniki mehmoni g'animat.

Dunyoning doimiy aylanib turuvchi bu davr va zamoni insoniyatga yana qayta berilishi amri maholdir. Yaratganning dunyoga mehmon sifatida keltirgan barcha xaloyiq – yaratiqlari ham o'tkinchi va kayta kelishi dargumon.

Tasavvuf falsafasiga ko'ra dunyo, undagi barcha narsalar – o'tkinchi. Shuning uchun ularga ko'ngil bog'lash, umrni behuda sarflash qoraladi. Keyingi bayt ham yuqoridagi fikrni davom ettiradi.

To bulbuli mastona suxanrezni bul dam,

Ayvoni jahon bog'i gulistonni g'animat.

Bulbul – oshiq timsoli. Bog'i guliston esa oshiq va mashuq makoni, yoki oshiqlik martabasi. Ushbu damda oshiqning mast bo'lib, ox-u nola qilishi, oshiqlik maqomi ham g'animatdir.

Bu shavkat-u sha'ningni xudoyim nasib etsun,

Davlat nigini, taxti Sulaymoni g'animat.

Senga berilgan martaba, shon-u shavkat o'zinga nasib etsin, ammo insonlar, shayton va jinlarni, shamollar va qushlarni o'ziga bo'yinsundirgan, shunday qudratli sultanat va ilm sohibi Sulaymon payg'ambarga ham boqiy berilmaganidek, sen uchun ham bular o'tkichidir.

Umringni bahorida muhabbatni sug'org'il,

Ko'z mardumini giryai boroni g'animat.

Umr bahori – yoshlik, kuch va g'ayratga to'lgan payt; qalbni muhabbat bilan sug'orish – qalbni poklash; ko'z yoshlari bo'roni – poklanish mashaqqati. Demak, qalbni poklash insondan mehnat va mashaqqat talab qiladi. Inson umr bahoridagina bunday mashaqqatlarga bardosh berishi mumkin. Lekin umr bahori ham juda tez o'tib ketadi.

Ochg'il ko'zing, ey dil, qilako'r vaqtı tomosho,

Ayyomi jahoni mohi toboni g'animat.

Baytning nasriy bayoni tushunarli. Tasavvuf adabiyotida butun olam, koinot Allohning qudratini ko'rsarib turuvchi ko'zgu deb ta'riflangan. Inson atrofga nazar solib Allohning qudratini, Allohning jamoli nurini ko'rishi mumkin³⁰. Shuning uchun lirik qahramon qalbiga xitob qilib, butun olamga qalb ko'zi bilan nazar solish vaqtı kelganligini va bu ayyomning ham g'animat ekanligini ta'kidlayapti. Quyida faxriya mazmunidagi begona bayt keltirilgan:

Fazliy bila ul g'unchai nashgufta ochilmish,

Sayri chamani ham guli xandoni g'animat.

Mumtoz she'riyatimizda ma'lum bir shoirlar ijodini gulshanga, har bir she'rini esa gulga qiyos etilgan. Shoira "Fazliy bilan shunday go'zal bir she'r paydo bo'diki, she'riyat maydonida bunday she'rning yana qayta vujudga kelishi amri maholdir", deydi.

Vaysiyi gado, sen bukun o'ksitma sadoni,

Lutfila tarahhum yana ehsoni g'animat.

Nega gado Uvaysiy sadoni bu kun o'ksitmagin deydi. O'ksitmoq – kamaytirmoq, sado – bu o'rinda zikr, ma'nosida. Zikr aytilda, solikning qalb ko'zi ravshanlashib, yorning ehsoni va marhamati bo'lган jamoli nuridan bahramand bo'lishi mumkin. Qalb ko'zi ila ilohiy jamol nuridan bahramand Uvaysiy yorning bu marhamati, ehsoni ham g'animat ekanligini, yana qayta bahramandlik nasib bo'lmasligini o'ziga xitob qilib aytadi.

Endi g'azal baytlariga birma bir nazar tashlasak. Dastlabki uch baytda dunyoning o'tkinchiligi haqida so'z boradi:

1-bayt: Zamon, vaqt, barcha yaratiqlar o'tkinchi;

³⁰ Комилов Н. Тасаввуф. – Т.: Мовароуннахр – О'zbekiston, 2009. 139-6.

2-bayt: Oshiqlik ham g'animat;

3-bayt: Hukmdorlik, shon-u sharaf ham o'tkinchi;

Xo'sh, unda nima qilish kerak?

4-bayt: Yoshlikda qalbni poklash;

5-bayt: Olamga qalb ko'zi bilan boqish va anglash;

6-bayt: Faxriya tarzida begona bayt;

7-bayt: Alloh jamoli nuridan bahramand Uvaysiy bir kun kelib bu ehson va marhamatdan bebahra qolishdan xavotirda. Shuning uchun u o'ziga xitob qiladi. Baytlarni umumlashtirib shuni aytish mumkinki, ular – Uvaysiy solik qalbining ifodasi. Sovetlar davrida qilingan ko'plab tahlillar qatori Uvaysiyning ushbu g'azalida ham “dunyoga bo'lган muhabbat, hayotsevarlik tarannum etiladi”, deya talqin etilgan. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, shoira Uvaysiyning deyarli barcha g'azallarini tasavvuf g'oyalaridan ayro tarzda tahlil etib bo'lmaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, shoira ijodida qofiya va radif muhim unsur hisoblanib, ularda fikrning avj nuqtasi, mag'zi mujassamlanadi. Yuqorida tahlilini ko'rib o'tgan g'azalimizda dunyoga bo'lган muhabbat, hayotsevarlik tarannumi emas, aksincha, olamning o'tkinchiligi va bu dunyo ko'ngil qo'yishga arzimasligi, muhabbat qo'yishimizga eng munosib zot Alloh zikri ila qalbni poklash kerakligi haqidadir.

Quyida tasnif etilgan g'azallarni sharhlashning hojati yo'qligi sababli ularga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

3. Hasbi hol g'azallar.

Shoiraning mashhur: “Uvaysiyman” radifli orifona-falsafiy mazmun ifodalangan mazkur g'azalida uning ko'ngil olami, dunyoqarashi ham aks etganligi sababli hasbi-hol g'azal sifatida tasnif etishni maql ko'rdik. Tasnifda aks etganidek, **hasbi hol** mazmunidagi g'azallar Uvaysiy lirikasining mavzu yo'naliishlari nuqtai nazaridan o'ziga xosliklaridan biridir.

Mazkur mavzu tarkibiga **farzand sog'inchi** ifodalangan g'azallarni ham kiritdik. Xususan, “Bu kun ey do'stlar, farzandi jononimni sog'indim, Gado bo'lsam ne ayb, ul shohi sultonimni sog'indim”, (Увайсий. Мазмун маъдани, 107-б.) “Yo iloho, bergasen ul shohi sultonimga rahm, Aylagay shoyad ko'rub bul chashmi biryonimga rahm” (Увайсий. Мазмун маъдани, 111-б.) baytlari bilan boshlanuvchi g'azallari shular jumlasidandir. Uvaysiuning hozirgi kunda o'quvchilar qo'liga yetib kelgan g'azallari tarkibida boshidan oxirigacha farzand sog'inchi mazmuni ifodalangan g'azallar soni ikkitadir. Ammo shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, turli mavzuga bag'ishlangan g'azallar tarkibida ayni mavzuga oid baytlarni uchrab turishi ham shoira ijodi uchun xos xususiyatlardan.

4. Hajviy g'azallar:

Jahon otin Uvaysiy lirkasi bilan yaqindan tanishgan o'quvchi mungli, xazin kayfiyat uning she'rlarida yetakchi o'rinni egallashining guvohi bo'ladi. Buning aksi bo'lgan hajviy – ko'tarinki kayfiyat ifodalangan she'rlari esa sanoqliginani tashkil etadi. Bizga qadar yetib kelgan quyidagi birgina g'azal buning yaqqol namunasidir:

Xo'qand shahridin kelganlar, kafshim yo'qoldi, sandamu?

Holi dilimni bilganlar, kafshim yo'qoldi, sandamu?

(Увайсий. Мазмун маъдани, 138-б.)

5. Ijtimoiy mavzudagi g'azallar:

Iyd o'ldi bu kunki ey shahanshoh,

Bo'lgilki bu xalq dilidin ogoh³¹.

Mazkur 6 baytli g'azal o'zining moddiy ahvoli bayonini podshohga arznama tarzidagi ifodasi hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ushbu tasnif shartlidir. Chunki ishqiy mavzudagi g'azallari tarkibida farzand sog'inchi yoki ijtimoiy hayot bilan bog'liq

³¹ Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1967. 337-б.

baytlar ham uchraydi. Orifona-falsafiy mazmun aks etgan g'azallarida hasbi-hol baytlarni ham uchratamiz. Ya'ni ushbu mavzular bir g'azal tarkibida qorishiq holda kelishi shoira lirikasida uchrashi mumkin bo'lган xos holatlardandir.

Uvaysiy g'azallari kompozitsiyasi ham uning mazmuni va tasvir usullari kabi rang-barang bo'lib, bizga qadar yetib kelgan g'azallarining har biri o'ziga xos kompozitsiya va semantik strukturaga ega. Ularni uslub jihatidan shartli ravishda quyidagicha tasniflash mumkin: 1) vasp; 2) (murojaat (arznama, shikoyat, iltijo); 3) sharhi hol; 4) muhabbat ahliga yo'l-yo'riq ko'rsatish. Bu tasnif ham nisbiy bo'lib, bir g'azal tarkibida aralash holda ham kelishi ham kuzatiladi.

Uvaysiy g'azallarining semantik strukturasi uchun xos bo'lган yana bir xususiyat shuki, aksariyat hollarda mumtoz ijodkorlarning asarlari singari maqtadan oldingi bayt mazmun va uslub jihatidan butun g'azal tarkibidagi baytlardan ajralib turadi. Bunday baytlar oldingi baytlardagi tasvir usullaridan qat'i nazar ikkinchi shaxsga (ko'ngilga, zohidga, ulusga, soqiya , umuman barchaga) qaratilgan murojaat, xitob tarzidagi o'git (ba'zan kinoya, ta'na, o'z-o'zidan faxrlanish) yoki umumlashgan ibratomuz xulosadan iborat bo'ladi. Xusan, "Falak subhimni shom etti-yu, xurshidim nihon etti, Shafaq yanglig' nihonkim, bul hazin ko'nglimni qon etti", matla'li yetti baytdan iborat sharhi hol ifodasi bo'lган g'azalning oltinchi bayti quyidagicha:

Dilo shukr ayla g'am chekkanda qilsang xoslig' da'vo,

Xudoyim bandasini dard-u g'amda imtihon etti,

(Увайсий. Мазмун маъдани 181- б.)

Ko'p o'rnlarda faxriya baytlarni ham uchratamiz. Yuqorida tahlilini ko'rib o'tganimiz "g'animat" radifli g'azal bunga yaqqol misoldir. Shuningdek, ayni jihat maqta' uchun ham xos. Shoiraning "Ko'zlaring firoqida tanda lolagun qonlar, Qilg'ali tamoshosin saf chekibdi mujgonlar", matla'li yorning vasfiga bag'ishlangan g'azalining maqta'siga e'tibor qaratsak:

Sabr qil bugun, Vaysiy, qilma noshikebolig’.

Tongla Haq bo’lur qozi, dasting ul giribonlar.

(Увайсий. Мазмун маъдани, 51- 6.)

Sharhi hol uslubida bitilgan “Ishq ahlig’a yaroshur doimo so’z-u gudoz, Sho’x ahlig’aki, istig’no bilan yuz oncha noz”, matla’li g’azalning maqtasi esa quyidagicha:

Baysiy sha’nig’a munosib ko’rsa kim har qancha so’z,

Ming zabon paydo bo’lub, aytsa yano to bo’lsa oz.

(Увайсий. Мазмун маъдани, 67- б.)

Jahon otin Uvaysiy lirikasida mumtoz adabiyotimizda an’anaga aylangan majoziy ishq talqini yaqqol namoyon bo’lganini ko’ramiz.

Ul ma’juz-u bu haqiqat hu emas, ey piri dayr?

Ul namoz-u bul muhabbatmu emas ey xurdyosh?³²

singari baytlar fikrimizni dalillaydi. Ayni jihatni shoiraning taxallusi bilan bog’lab izohlash to’g’riroq deb o’ylaymiz. Shoira taxallusi mohiyatiga dastlab adabiyotshunos Sultonmurod Olim alohida e’tibor qaratib, “Ishq, oshiq va ma’shuq” risolasining “Uvaysiy ham Uvaysiyimi”³³ sarlavhali bobida keng yoritib bergan edi. Unga ko’ra: “...Rivoyat qilishlaricha, Muhammad alayhis-salom olamdan o’tar paytida sahabalar ul zotdan eski to’nlarini kimga berish lozimligini so’rabdilar. Payg’ambarimiz, Navoiy so’zlari bilan aytilsa: “Debdurlarki, Uvays Qaraniyg’a bersunlar va desunlarki, mening ummatimni duo qilsun”. Yamanning Qaran degan yeridan bo’lgan bu tuyaboqar Uhud tog’idagi urushda payg’ambarimizning muborak tishlari singanini eshitib, urib-urib o’zining o’ttiz ikki tishini sindirgan edi. Ammo Muhammad alayhis-salom bilan Uvays Qaraniy bir-birlarini hech qachon ko’rmagan edilar. Shunday bo’lsa ham

³² Увайсий. Девон.: Тузувчилар: А. Каюмов, Э. Иброхимова. – Т.: 1959. 141-6.

³³ Олимов С. Ишқ, ошиқ ва маъшук. – Тошкент: Ёзувчи, 2002. 88-6.

Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbati”da qayd etilishicha, rasululloh uni “ma’ni va ruhoniyat yuzidin tarbiyat qilib erdilar. Bu jihatdin har kishiningki, bu toyifadin(ya’ni mashoyixlardan) zohir yuzidin (ya’ni bevosita hayotda tarbiya qilgan) piri ma’lum bo’lmasa va mashoyixdin birining ruhi oni tarbiyat qilg’an bo’lsa, oni “uvaysiy” derlar”³⁴. Uvays Qaraniy majoziy oshiq timsoli sifatida mumtoz adabiyotda mashhurdir. Mumtoz salaflarning “majoz haqiqat uchun ko’prik”, “majoz tong, haqiqat quyoshning o’zi” falsafasi ham be’jiz emas, albatta. Jahon otin Uvaysiy g’azallarida ayni jihat ikki xil ko’rinishda namoyon bo’ladi:

1)majoz haqiqatga ulanishi to’g’ridan to’g’ri beriladi:

Azalda ishq darsidin saboq olg’on edi ruhim,

Aning-chun orzudur bu ko’zum husning kitobig’a.

(Увайсий. Мазмун маъдани, 159-б.)

2)majoz haqiqatga ulanishi ramzlar vositasida ifodalanadi:

Meni “Loyadxulu” deb mahrum etma, bog’bon ahli,

Azal dehqoni bag’rim qonini sochg’an bu gulzora.

(Увайсий. Мазмун маъдани, 159-б.)

Shuningdek, Uvaysiy she’riyatida o’ziga ustoz deb bilgan Navoiy, Bedil, Mashrab singari mutafakkir ijodkorlarning ta’sirini, ularning ijodiga havas borligini yaqqol sezish mumkin. Shuningdek, mumtoz adabiyotimizda mashhur – Majnun, Mansur Xalloj, Vomiq, Uzro, Farhod va Shirin kabi an’anaviy timsollarning Uvaysiy ijodidda bot-bot kelishi ham o’ziga xos mohiyat kasb etadi. Jumladan, “Malakdur yo bashardur, yo pari na zotvindur ul”³⁵, “Boshda savdo, ko’zda ashk-u, dilda dog’-u jonda o’t” (Увайсий. Мазмун маъдани, 128-б.) singari olovli jumlalar Mashrabni eslatса, “Vaysiy nazmidin charo tahsin chiqarmay, ey ulus, Ushbu baytim orzuyi payravi Bedil charo” (Увайсий. Мазмун маъдани, 20-б.)bayti Bedil she’riyatiga havas borligini anglatadi. “Ko’zumga dard arusin munda zebo

³⁴ А Навоий. Насойим ул-мухаббат. МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 2001. Т. 75-б.

³⁵ Увайсий. Девон.: Тузувчилар: А. Каюмов, Э. Иброҳимова. – Т.: 1959. 121-б.

aylagil yorab, Qiyomat kunda mahbubim huvaydo aylagil yorab³⁶” matla’li g’azalining barcha baytlari Navoiyning “Layli va Majnun” asaridagi Majnunning kaba yonida qilgan iltijolarini yodimizga solsa, “anal haq” jumlesi bilan klassik adabiyotda mashhur bo’lgan olovli ishq timsoli Mansur Xalloj nomining g’azallarida bot-bot kelishi Uvaysiyning ham ana shunday jo’shqin ishq sohibi deb aytishimizga asos beradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Jahon otin Uvaysiy g’azal janrini o’zigacha mavjud an’analarni davom ettirgan holda mavzu jihatidan rang-barang, badiiyatan puxta, mazmunan yetuk namunalarni yarata oldi. Shoira g’azallari baytlar soni jihatidan 4 baytdan 12 baytgacha hajmni tashkil etadi. Uvaysiy g’azallari mavzu ko’lami rang-barang bo’lib, irfoniy-ishqiy, falsafiy, hasbi hol, hajviy, ijtimoiy mavzularni o’z ichiga olgan. She’rlarida yetakchi mavzu tasavvufiy ishq bo’lib, dunyoviy muhabbat tarannumi shoira lirikasida uchramaydi. An’anaviy Sharq she’riyatiga xos majoziy ishqning haqiqatga ulanib ketishi Uvaysiy se’riyati mohiyati uchun ham xos bo’lib, u ikki xil ko’rinishda – to’g’ridan to’g’ri va ramzlar vositasida namoyon bo’ladi. Shoira g’azallarining qurilishi, semantik-struktur tomonlari va ramziy-ma’joziy ifodalanish shakllari jihatidan ham o’ziga xosliklari yaqqol ko’rinadi. Uning g’azallarida Sharq klassik adabiyotining mashhur siymolariga ishoralarni, shuningdek, ularning ijodiy falsafasi bilan uyg’unlikni ham ko’ramiz.

2. 2. Uvaysiy muxammaslari poetikasi.

Muxammas musammat (bandli she’r)ning bir turi bo’lib, yaratilish xususiyatiga ko’ra ikki xil bo’ladi:

- 1) tab’i xud;
- 2) taxmis (g’azalni beshlantirish asosida yaratilgan).

Tab’i xud muxammasda ijodkor o’zi mustaqil ravishda beshlik yaratadi. Taxmisda esa muallif o’zga shoir yoki ba’zida (juda kam hollarda) o’z g’azalini

³⁶ Увайсий. Девон.: Тузувчилик: А. Каюмов, Э. Иброхимова. – Т.: 1959. 71-б.

asos qilib olib, shu mavzuni davom ettirgani holda, vazn, qofiya va radifni saqlab qolib beshlik yaratadi. Bunda asos qilib olingan g'azaldagi har baytning yuqori qismiga uch misra qo'shiladi.

Uvaysiy adabiy me'rosi to'g'risidagi ma'lumotlarga ko'ra shoiraning birinchi topilgan devonida 29 ta muxammas borligi, shundan 9 tasi Navoiy g'azaliga, 5 tasi Amiriyl g'azaliga taxmislari ekanligi, bizga ma'lum. Shuningdek, 1960-yilda topilgan uchta devonida ko'plab janrdagi sherlar qatori muxammaslar ham borligi e'tirof etilgan. Shoira she'rlarining bir necha bor nashr etilishi natijasida bugungi kunda o'quvchilar qo'liga 31 ta muxammasi yetib kelgan. Quyida Uvaysiy muxammaslari jadvali berilgan:

Tab'i xud	11
Navoiy g'azaliga taxmis	6
Amiriyl g'azaliga taxmis	7
Fuzuliy g'azaliga taxmis	3
Vazir g'azaliga taxmis	3
Jomiy g'azaliga taxmis	1

Tab'i xud muxammaslari:

1	Sahrog'a chiqib qilg'ali ey yor tamosh (Devon 60-bet)
2	Oshkor o'lur bul kun tab'i she'ri pinhonlar (Devon 108-bet)
3	Mehring o'lsa soqiy bir daf'i xumor etmazmidim (Devon 200-bet)
4	Eshitkil man beray bir necha zikringda xabar taqsir (Devon 208-bet)
5	Bu kun tabiatim matlui jonondin tamosh qil (Devon 281-bet)
6	El degay g'avvos ko'zdin gavhar afshonim ko'rub (Mazmun ma'dani 191-bet)
7	Mulabbab borgohingda ajab lutf-u karam tahsin (Mazmun madani 197-bet)
8	Kulbama qo'ydi qadam do'st, shod-u xandonman bu kun (M m 198-bet)

9	Ne arz etsam, suxanras, nuktayi ash'ordin fahm et (Ko'ngil gulzori)
10	Shifosi yo'qsa vasling hajri bemoringga sallamno (O'zbek shoiralari bayozi)
11	Mavzun qadig'a qilib tahammul (O'zbek adabiyoti tarixi R Orzibekov 200-bet)

Tab'i xud muxammaslardan farqli o'laroq o'zga shoir g'azaliga taxmis bog'lash, bu – go'yo shu shoir bilan ijodiy hamkorlik va muayyan ma'noda adabiy musobaqaga kirishishdir. Shuning uchun ham ijodkorlar odatda o'z taxmislarni ma'lum poetik mahoratga ega bo'lganlaridan keyin yarata boshlaganlar. Bunda g'azal muallifi bilan unga taxmis bog'layotgan muallif o'rtasida mushtarak dunyoqarash, estetik ideal hamohangligi va g'oyaviy yaqinlik bo'lishi zarur. Taxmis muallifi g'azalda keltirilgan fikrlarni mantiqan rivojlantirib, uni o'z ijodiy g'oyalari bilan shunday to'ldirishi va boyitishi kerakki, natijada vujudga kelgan she'r unga asos bo'lgan g'azal bilan uyg'unlashib, bir muallif tomonidan yaratilgandek tasavvur uyg'otsin.

Uvaysiy lirkasida Alisher Navoiy ijodining ta'siri yaqqol seziladi. Shoira she'rlerida Navoiyning irfoniy qarashlari singdirilgan butun boshli g'azallarni, Navoiy qo'llagan tashbihlarni, ifoda usullarini, shuningdek, Navoiy singari yangilikka, mukammallikka intilish, shakl va mazmun mutanosibligi kabi jihatlarni ko'rishimiz mumkin. Navoiyning bir turkum g'azallariga taxmislari bitishi ham shoira uning ijodiga o'zgacha hurmat, ehtirom bilan qaraganligining isbotidir.

Quyida Navoiy g'azallariga bitilgan Uvaysiy taxmislari jadvali berilgan:

1	Jon ila vasfin kitobig'a bo'lur sheroza ruh (Devon 93-bet)
2	Men hastai zoringni biror aylamading yod (Devon 104-bet)
3	G'unchani yod aylamakda yor gulzoring g'araz (Devon 152-bet)
4	Ishq irshodi erur avroqi dilbar topsa xat (Devon 156-bet)
5	Yig'lamay ko'z abri doim o'tti xandonlig'da hayf (Devon 165-bet)
6	Bo'ldi bul kun menga sarvi xiromon o'tru (Devon 234-bet)

Navoiyning mashhur “hayf” radifli g’azaliga bitilgan taxmisga qisqacha to’xtalib o’tsak. Shoir g’azali quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Kechdi umrim naqdi g’afat birla nodonliqda hayf,

Qolg’oni sarf o’ldi anduhi pushaymonlig’da hayf³⁷.

Matla’dan shoir umri bilimsizlik, johillik, g’afat bilan o’tib, hayf bo’lganligi, umrining qolgan qismi esa unga pushaymonlik, g’am chekishga sarf bo’lganligi bayoni keltiriladi.

O’z ayb-u nuqsonini isbot qilish, umrini sarhisob etish, yetuk ilm-u donishlikdan dalolat. Ya’ni Navoiy ta’biri bilan aytganda “yuksaklikni pastlikdan olish” demakdir. Shoir a mazkur baytga quyidagi misralarni qo’shadi:

Yig’lamay ko’z abri doim o’tti xandonlig’da hayf,

Hech bo’lmas odamini umri giryonlig’da hayf,

Sud yo’q so’z birla ketti jon so’zonlig’da hayf

Kechdi umrim naqdi g’afat birla nodonliqda hayf,

Qolg’oni sarf o’ldi anduhi pushaymonlig’da hayf.

Uvaysiy qo’shgan dastlabki uch misra matla’ning birinchi misrasini – umrining hayf bo’lishiga asosiy sabab – g’afat va nodonlikni keng yoritib kelgan. Shuningdek, Navoiy bayti Uvaysiy fikrlarining takroran tasdig’i, iqrori sifatida bandning kulminatsion nuqtasi vazifasi bajargan. G’azalning yana bir baytini ham tahlilga tortsak:

Yaxshiroqdurkim hisob o’lg’onda sultondin gado,

Hayfkim bo’lgay gado avqoti sultonlig’da hayf.

Faqrlikni sultonlikdan ustun qo’yish shoirning ko’plab baytlarida bot-bot keladi. Chunki Navoiy haqiqiy, komil sultonlar aslida suratda shoh, siyratda faqr bo’lishi

³⁷ Алишер Навоий. Фаройиб ус-сигар. ТАТ. 10 жилдлик . Т.: F Фулом номидаги НМИУ, 2011. Ж. 3. 175-б.

kerakligini tarafdori bo'lgan. Shuning uchun bu fikrini o'z zamonasining sultonlariga pand-nasihatlari, asarlari orqali singdirishga harakat qilgan. Mazkur bayt ham ana shunday baytlardan biridir. Shoira unga mos tarzda quyidagi misralarni qo'shadi:

Xo'blar mazmunidin kelgay qulog'imga nido

Faqrdin yuz ursa ul kibro sari vovaylato

Dedilar qutbi zamonlar ushbu so'zni moado,

Uvaysiy "yaxshi(komil inson)lar mazmunidan mening qulog'imga nido keladi", deydi. Qanday nido? Agar kimki faqrlikdan yuz o'girib, kibr sari boradigan bo'lsa, bu juda achinarli holdir. Shuning uchun zamona avliyolari, aqli komillar bu so'zni – kibr sari olib boruvchi barcha narsalarni o'zidan mosivo tuttilar. Chunki:

Yaxshiroqdurkim hisob o'lg'onda sultondin gado,

Hayfkim bo'lgay gado avqoti sultonlig'da hayf.

Yana mazkur o'rinda shoira qo'shgan misralarga hamohang tarzda Navoiy baytlari yuqoridagi misralarning yechimi, kuliminatsion nuqtasi bo'lib keladi. Shu tariqa muxammasning barcha bandlari Navoiy va Uvaysiy misralari birikib fikriy mukammallik, mazmunan yaxlitlik hosil qilingan.

Uvaysiy taxmis bog'lagan shoirlar ichida Amiriylar (Umarxon) birinchi o'rinda turadi. Sababi Amiriyya o'zgalarda takrorlanmaydigan noyob ifoda usullar va tashbihlarni qo'llash mahorati kuchli. Quyida Amiriylar g'azallariga bog'lagan Uvaysiy taxmislari jadvali berilgan:

1	Shifo rasmin tuzubon ey tabib, ishqingda bemor et (Devon 87-bet)
2	Osiydururki desa u chang-u rubob talx (Devon 95-bet)
3	Naylayinkim telbalikdin bizni diloram demas (Devon 133-bet)
4	Bu kun bu tab'i nomavzun vasfingni xayol etmis (Devon 144-bet)
5	Shoh ahlig'a yaroshur doim ehson o'ynamoq (Devon 167-bet)

6	Bilmadim men, ne sabab gul yuzidin tomdi gulob (Devon 193-bet)
7	Quloq solg'il g'aming tog'ida senga aylag'an roza (Devon 255-bet)

Taxmislardan biriga qisqacha to'xtalib o'tamiz. Amiriy g'azali to'qqiz baytdan iborat bo'lib, yor vasfiga bag'ishlangan. U quyidagi matla' bilan boshlanadi:

Bahori orazing gulzori o'l mish sabzadin toza ,
Yuzing avroqi yozmish rishtai xattinga sheroza³⁸.

Birikmali istiora va tashbih vositasida yor yuzining betakror qiyofasi yaratilgan.

Shoira unga quyidagi misralarni qo'shamdi:

Quloq solg'il g'aming tog'ida senga aylag'an roza
Alingga olg'il-u noz etma, keltur nag'mangi soza
Ko'z-u, qosh-u, qabog'ing xo'b yaroshur (ul beandoza)³⁹
Bahori orazing gulzori o'l mish sabzadin toza ,
Yuzing avroqi yozmish rishtai xattinga sheroza.

Ma'limki, mumtoz adabiyotda yor qancha go'zal bo'lsa, oshiq rashkdan shuncha ko'p g'am chekadi. Misraga ko'ra oshiq g'am tog'ida turib dil rozini mashuqasiga aytishni istaydi. Dardli ko'ngil esa dardli qo'shiq istaydi. Shuning uchun oshiq nag'masozga murojaat qilib sozini qo'liga olishini so'ramoqda. Uchinchi misra esa aynan Amiriy baytlari bilan uyqashib ketgan. Uvaysiy qo'shgan oshiq kayfiyati va yor vasfi ifodasi Amiriy misralari bilan birlashib yaxlit manzara hosil qilgan. G'azalning ikkinchi bayti quyidagicha:

Iki fatton ko'zing Chin shahridin boj olsa, tong ermas,
Xo'tan mulkiga tushmish shuhrati zulfiqdin ovoza.

³⁸ Амирий. Девон. Нашрга таййорловчи: Қодирова М. – Фан, 1972. 23-6.

³⁹ Qo'lyozmada ham ochiq qoldirilgan. Taxminan shunday bo'lishi mumkin.

Mumtoz adabiyotda Chin (Xitoy) ilm-u hunar, noyob va go'zal ashyolar shahri sifatida keladi. Xo'tan shahri esa xushbo'y mushkning vatani sifatida tasvirlanadi. Ma'shuqaning ko'zlari, sochlarining betakror va tengsizligini tasvirlashning bundan ortiq ifodasi bo'lmasa kerak. Xo'sh shoira unga qanday misralarni qo'shdi ekan.

Ko'rib gul yuzingni bulbul navodin qolsa, tong ermas,
Muyassar bo'lsa, qadding sarvg'a aynolsa, tong ermas,
Labing obihayoti ichra g'avg'o solsa, tong ermas,
Iki fatton ko'zing Chin shahridin boj olsa, tong ermas,
Xo'tan mulkiga tushmish shuhrati zulfingdin ovoza.

Uvaysiy talqinida yorning gul yuzi bulbulni hayratga qoldiradi. Agar qaddini sarv ko'rsa, uning boshidan aylanadi, lablari esa tiriklik baxsh etuvchi obihayotga g'avg'o soladi. Bu ta'rif Amiriy qalamidan to'kilgan ko'z va soch ta'riflari bilan birlashib, mukammal go'zallik tasvirining yorqin namunasi vujudga kelganini ko'ramiz. Qolgan bandlar ham xuddi shu tarzda bir birini to'ldiradi va fikriy mukammallik kasb etadi.

Sharq klassiklarning zabardast vakillaridan biri Fuzuliy o'z ijodi bilan ko'plab she'riyat ixlosmandlarini o'ziga maftun etgan. Xususan, Jahon otin Uvaysiy ham Fuzuliyning uchta g'azalliga bog'lagan taxmislari bizga qadar yetib kelgan.

Quyida Uvaysiyning Fuzuliy g'azallariga taxmislari jadvali aks etgan:

1	Ey ziyon-u suddin ixroj majnunvor lafz (Devon 158-bet)
2	Istasang ishq etma, ey dil, sabr-u somondin ta'ma (Devon 161-bet)
3	Dilo maqrubi jonon o'lma uldir kor so'zonlig' (Devon 164)

Shoira taxmislardan biriga qisqacha to'xtalib o'tsak. Fuzuliy g'azali falsafiy-irfoniy mohiyat kasb etuvchi quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Kel ey, rohat sonin asbob jam'in qilma nodonlig',
Tariqi faqr dutkim, faqr emish olamda sultonlig'⁴⁰.

Baytda lirik qahramonning o'ziga xitobi ifodalangan. Ya'ni bu olamning barcha rohatlaridan johillik qilmasdan (demak, dunyo rohatlariga berilish bilimsizlik) vos kechib, faqr yo'lidan borishga chaqirmoqda. Chunki faqrlik sultonlik(o'z nafsi ustidan hukmronlik)dir. Shoira unga quyidagi misralarni qo'shami:

Dilo maqrubi jonon o'lma uldir kor so'zonlig'
Qaribi ul harim o'lmog'liging emasdur osonlig',
Fanoi faqr tuprog'ida qilg'il o'zni pinhonlig'
Kel ey, rohat sonin asbob jam'in qilma nodonlig',
Tariqi faqr dutkim, faqr emish olamda sultonlig'.

Uvaysiy misralari ham diliga murojaat bilan boshlanadi: Ey dil jononga yaqin bo'lma, chunki bu ish seni kuydirib kul qiladi. Unga xos (eng yaqin) bo'lish oson emas. (Xo'sh, unda nima qilish kerak!) "Fanoi faqr tuprog'ida o'zni pinhon qilish" – o'zini yor qarshisida yo'q deb bilish, o'zlikdan kechish; dunyoviy barcha rohatlaridan vos kechish; o'z nafsi ustidan hukmronlik qilish.

Keyingi bayt ham mazkur fikrlarning mantiqiy davomi bo'lganligi uchun shoira qo'shgan misralar ham avvalgi band bilan mantiqan zanjir hosil qilgan.

Quloq tut ushbu panda jon-u dil birlaki somesen,
Havou, orzu, yuz ming havasdin balki monesen,
Bo'lib goh mone, goh ra'yi nafsdin garchand qonesen,

⁴⁰ Muhammad Fuzuliy. Asarlari.Olti jilda. I jild. – Boku.: Sharq-G'arb, 2005. 400-b.

Murod ar saltanatdin komi dildur nafsa tobesen

Na hosil saltanat ot ila qilmoq banda farmonlig’.

Ushbu pandimga jon-u diling bilan qulqoq tutsang eshita olasan. Natijada dunyoviy(nafs bilan bog’liq) yuz ming orzu, hoy-havaslar sendan nari ketadi. Gohida bu pandim sening bu istaklaringga to’siq bo’lsa, gohida o’zing ham qanoat qilasan. (Avvalgi baytda Fuzuliy fikrlari umumiy tarzda aytilgan bo’lsa, mazkur baytda fikr konkretlashgan) “Agar sening maqsading saltanatga egalik qilish bo’lsa, nafsing sening ustingdan hukmron – sen nafsingga tobesan, banda(ixyori o’zida bo’lmagan, tobe qul,)ga bu o’tkinchi olamda saltanat ustida farmonbardor bo’lishning nima foydasi bor ”, deydi. Taxmisning barcha bandlari shu tarzda misralar aro, bandlar aro mantiqan zanjir hosil qiladi. Bular Uvaysiyning she’r ilmi borasidagi salohiyati qay darajada ekanligi to’g’risida bizda ma’lum tasavvur hosil qilishimizga asos beradi.

Uvaysiy o’z zamondoshi, shoir Vazir g’azallariga bog’lagan uch taxmisi bizga qadar yetib kelgan. Quyida ularning jadvalini ko’rish mumkin:

1	Ishq kufr etti meni bo’ynimda zunnorin ko’ring (Devon 178-bet)
2	Umringni bahorida yodi xatti rayhon qil (Devon 191-bet)
3	Ishq bahrin qa’rida uldir duri yaktosidin (Devon 231)

Taxmislardan birini tahlilga torsak. Vazir g’azali yor vasfi bilan boshlanadi:

Ul pari xusn ahlining a’losini a’losidin,

Men erurman telbalar adnosini adnosidin.

Baytda ma’shuqa va oshiqni parallel qo’yish orqali ularning maqomiga ishora qilinmoqda. Ya’ni ma’shuqa husn ahlining eng go’zali, oshiq esa telbalikdan o’zini uning oldida juda past, arzimas hisoblaydi. Shuningdek, baytda qofiyani takror qo’llash orqali sifatning orttirma darajasi hosil qilinib, bu ifodaning ta’sirchanligini ta’minlagan. Endi shoira qo’shgan misralarga nazar tashlasak:

Ishq bahrin qa’rida uldur duri yaktosidin,
Husni bog’i ichra kulg’an g’unchani ra’nosidin,
Yorlig’dan yorparvar, g’ayra beparvosidin,
Ul pari xusn ahlining a’losini a’losidin,
Men erurman telbalar adnosini adnosidin.

Ko’rinadiki, shoira misralari ham bayt mazmuniga mutanosib holda bitilgan. Unga ko’ra ma’shuqa ishq dengizi qa’ridagi durning eng yagonasi kabi, husn bog’ida kulgan g’unchalarning eng go’zali singari, o’zgalarga parvo qilmaydigan yorparvar –vafolidir. Bandda shoir baytlari Uvaysiy misralarining takrori va tasdig’i sifatida kelib, mazmuniy yaxlidlik hosil qilgan. Yuqoridagi misralar ma’shuqa vasfiga bag’ishlangan bo’lsa, quyidagi baytda oshiq ahvoli bayon etiladi.

Ko’rsangiz men telbani be poustar, ey axli xush,
Tutkasiz ma’zur kelmishmen adam sahrosidin.

Oshiq: “ey xush ahli , agar men telbani mushkul ahvolda ko’rsangiz ma’zur tuting. Chunki men adam – yo’qlik sahrosidan kelyapman”, deydi. Shoira unga quyidagi misralarni qo’shadi:

Yo’lg’a tushsang, kim junun dashti sari qilmang yurush,
Bu ravishda aylangiz tengri uchun pandimni go’sh,
To mobodo uchrasa, tegmang bu majnuna durush,
Ko’rsangiz men telbani be poustar, ey axli xush,
Tutkasiz ma’zur kelmishmen adam sahrosidin.

Agar yo’lga tushsangiz telbalik dashti sari yurish qilmang. Iltimos, Alloh (rizosi)uchun bu pandimga quloq tuting. Agar mobodo qo’pol majnun sizga duch kelsa, unga tegmang. Chunki men yo’qlik sahrosidan kelyapman.

Ko'rinaridiki, Uvaysiy misralari bayt mazmunini konkretlashtiradi, kengaytiradi. Vazir baytlari esa shoira misralari uchun ochqich vazifasini bajargan. Qolgan bandlar ham shu tarzda davom etib, xuddi bir shoir tomonidan bitilgan she'r singari yaxlit asar hosil bo'lgan.

Shoira lirkasida birgina taxmis Sharq klassiklarining zabardast vakillaridan biri Abdurahmon Jomiy g'azaliga bog'langan. Ishqiy yo'naliishda bitilgan g'azal quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Zulfing xayoli tushgali sho'rida boshqa,
G'am boshqa o'lturur meni, hijroni boshqa.

Bayt mazmuniga ko'ra oshiqning sho'r boshiga yor zulfi xayoli tushgandan keyin uning g'ami alohida, hijroni alohida bo'lib olgan. Nega? Hijron ham g'am emasmi? Bizningcha oshiqning avvaldan g'amlari ko'p bo'lgan. Hijron oshiqlar uchun katta g'amdir. Baytning ikkinchi misrasi "bir g'amim ikki bo'ldi, g'am ustiga g'am tushdi" xalq iborasiga to'g'ri keladi. Endi Uvaysiy qo'shgan misralarni ko'rib chiqsak.

Qoldim baloya, ko'nglimni berdimki yoshqa,
Chunkim mudom ikki ko'zim to'ldi yoshqa.
Husni zuhurin oldida ne had quyoshqa,
Zulfing xayoli tushgali sho'rida boshqa,
G'am boshqa o'lturur meni, hijroni boshqa.

Dastlabki ikki misrada lirik qahramonning yosh(ma'shuqa)ga ko'nglini berib baloga qolganligi, chunki u oshiqning ikki ko'zini yosh bilan to'ldirganligi bayoni beriladi. Uchinchi misrada esa ma'shuqa ta'rifi bayon etilib, avvalgi misralarni Jomiy baytiga mazmunan bog'alaydi. Shuningdek, Jomiy qofiyada tajnis san'atini qo'llagan. Ya'ni 1)boshqa – inson boshi, 2)boshqa – alohida-alohida ma'nosida. Shoira qo'shgan dastlabki ikki misrada ham ayni holni ko'rishimiz mumkin:

1)yoshqa – yosh ma’shuqaga, 2) yoshqa – ko’z yosh ma’nosida. Bu xol o’quvchida “taxmis bog’lash shunchaki baytni beshlantirish emas, balki taxmis bog’lamoqchi bo’lgan shoir bilan mahorat musobaqasiga kirishish hamdir” fikrini yana bir bor tasdiqlaydi.

Besh baytdan iborat mazkur g’azalning har ikkinchi misrasi avvalgi misraga mutanosib tarzda badiiy san’at qo’llanilgan. Bu esa shoirani taxmis bog’lashga undagan sabablardan biri hisoblanadi. G’azalning so’nggi baytiga nazar tashlasak.

Jomiy bir oh chekdi, aning ko’ngli yumshadi,

Ohim o’tini ko’r, ne asar qildi toshqa.

Baytda Jomiyning bir ohi ma’shuqning ko’nglini yumshatib yuborishi (ohi o’tining kuchliligi) mubolag’a bo’lsa, ikkinchi misradagi shoirona sabab husni ta’lil san’ati hisoblanadi. Baytda shoir o’ta kuchli oh chekib, hatto ma’shuqaning tosh qalbini eritib yuborganligi mazmuni ifodalanadi. Taxmis sifatida bog’langan dastlabki uch misra Jomiy baytining izohi bo’lib kelgan:

Jonom, tanim, bag’ir-jigarim to’ma o’xshadi,

Nodon eli yedi meni-yu, boz kavshadi,

Bir sangi dil muhabbatি Vaysiyni qurshadi,

Oshiqning kuchli oh chekishiga sabab nodon eli uning jonini, tanini, jigar-bagrini yeb, tag’in yana kavshaganligi ya’ni oshiqqa ishqisiz, johillar ma’naviy aziyat yetkazganligidir. Uchinchi misrada esa shoira ma’shuqaning ko’ngli tosh ekanligini aynan keltiradi. Bu misralar Jomiy bayti bilan birikib mukammal mazmuniy butunlikni hosil qiladi.

Yuqorida aytib o’tilgan fikrlardan shunday xulosalarga kelish mumkin: shoiraning ko’plab tab’i xud va taxmis muxammaslari orqali o’zining muxammas yaratish mahoratini namoyon eta oldi. Navoiy falsafiy qarashlari bilan umumiy zaminga ega Uvaysiy shoirning bir necha g’azallariga mahorat bilan taxmislar bog’laydi. Xususan, “hayf” radifli g’azaliga bog’lagan taxmisida Uvaysiy Navoiy

fikrlarini rivojlantirib, baytlar mazmunini yanada konkretlashtirgan. Shuningdek, har bir misralarni shoir baytlariga mantiqan uyg'un holda qo'llash orqali yaxlit bir asar darajasiga ko'tara olgan. Shoiraning Amiri, Fuzuliy, Vazir, Jomiy g'azalariga taxmislari ham uning she'rxonlik salohiyati qay darajada yuksak ekanligi haqida tasavvur hosil qilishimizga asos beradi. Bir so'z bilan shuni aytish mumkinki, taxmis bog'lash shunchaki baytni beshlantirish emas, balki taxmis bog'lamoqchi bo'lgan shoir bilan mahorat musobaqasiga kirishish hamdir. Uvaysiy bu vazifani yuksak darajada bajara oldi.

2.3. Uvaysiy tarji'band va tarkibbandlari poetikasi.

Jahon otin Uvaysiy lirikasida tarji'band janri ham alohida o'rinni tutadi. Ma'lumki, tarji'band arabcha "takrorlab bog'lamoq" ma'nosini bildirib, adabiy istiloh sifatida bir necha banddan iborat, g'azal singari qofiyalanadigan, birinchi bandning maqta'si qolgan bandlarning so'nggida ham takrorlanadigan she'r turini anglatadi. Bandlar oxirida o'zaro qofiyalanuvchi bayt barcha tarji'xonalarini o'zaro bog'lab turadi va vosila bayt deb ataladi. Tarji'bandlar odatda har biri 8-11 baytdan iborat bir necha banddan tashkil topadi. Ammo Jahon otin Uvaysiy tarji'bandlarining bandlari tarkibi olti misradan tashkil topgan. Hozirgi kunda Jahon otin Uvaysiyning to'rtta tarji'bandi ilm ahliga ma'lum. Tarji'bandlarining uchtasida ishqiy (Uvaysiyning ishqiy yo'nalishdagi she'rlarining deyarli barchasi zamirida ilohiy ishq mavjud), bittasida ijtimoiy mavzu ifodalangan. Shoiraning "Avvalo, men ushbu dunyoning vafosin bilmadim" misrasi bilan boshlanuvchi tarji'bandi 5 band (har bandda 6 misra), 30 misrani o'z ichiga oladi. Tarji'band quyidagi band bilan boshlanadi:

Avvalo, men ushbu dunyoning vafosin bilmadim,

Vojgun zoli falakning muddaosin bilmadim,

Do'stlig'ning necha g'amg'a ibtilosin bilmadim,

Bu dili ashkastadin o'tgan xatosin bilmadim,

Bu judoliqg'a ne bois intihosin bilmadim.

(Увайсий. Мазмун маъдани. 208-б.)

Ko'rinadiki, bandlar oxiridagi bayt vosila bayt hisoblanib, u o'zaro qofiyalangan misralardan tashkil topgan. Bu misralar qolgan bandlar so'nggida ham takrorlanadi. Tarji'band irfoniy-ishqiy yo'naliшhda. Unda ishq yo'lida chekayotgan mashaqqatlarining, ma'shuqa (Alloh vasli)dan bebahralikning sabablarini anglashga intilayotgan, bu yo'lда o'zida paydo bo'lган ko'plab savollariga javob topishni istagan oshiqning ruhiy manzarasi gavdalantirilgan. Mazkur tarji'bandda Uvaysiy umumlirkasi uchun xos bo'lган bir jihat ko'zga tashlanadi. Ya'ni she'rлarining so'nggida (g'azallari maqta'sida yoki maqta'dan oldingi baytlarda) muqaddas dinimizga xos mashhur tushuncha "qazoga rozi, baloga sobir" mazmuni singdirigan misralar mavjud. Fikrimizning dalili sifatida so'nggi bandni keltiramiz.

Ey dilo, be amri haq bir dona qum bejo ermas,

Banda g'ofildur, muqaddam ahli beparvo ermas,

Tog'dag'i ko'k maysalarg'a hojati daryo ermas,

Vaysiy, bir zarra farosatdin senga ifsho ermas,

Bu dili ashkastadin o'tgan xatosin bilmadim,

Bu judoliqg'a ne bois intihosin bilmadim.

Ushbu band oshiqning ishq yo'lida chekayotgan mashaqqatlari, bu yo'lда tug'ilayotgan cheksiz savollar, umuman, barcha ko'rgiliklar Yaratganning uning taqdiriga bitib qo'ygan qismati ekanligi, bu ishlarning barchasini anglab yetishga u ojizlik qilishi, o'z qismatiga rozi bo'lib, sabr qilish eng odil yo'l ekanligining o'ziga xos badiiy ifodasidir. Bu shoiraning mana bu baytini yodimizga soladi:

Shukr ayla Uvaysiy, bu jahon shod-u g'amig'a,

Peshonaga ne kelgusi taqdiri qalamdin.

(Увайсий. Мазмун маъдани. 123-б.)

Tarji'band ramali musammani mahzuf(afoyili va taqt'i: foilotun foilotun foilotun
foilun, – V – – / – V – – / – V – – / – V –) vaznida yozilgan.

Shoira lirikasidan joy olgan ikkinchi tarji'band "Bag'rimi so'rsang, misoli
lola gul yaprog'idur" misrasi bilan boshlanib, 7 band (har bandda 6 misra), 42
misrani o'z ichiga oladi. Bu tarji'band ham ishqiy mavzuda bitilgan. Unda
oshiqning sharhi- holi va uning ma'shuqasiga iltijolari ifodalangan. Tarji'band
quyidagi band bilan boshlanadi:

Bag'rimi so'rsang, misoli lola gul yaprog'idur,

Vahki, yaprog'i na o'lsun, bag'rin ichra dog'idur,

Ko'hkan deb qozg'onim homun aro g'am tog'idur,

Jism-u jonim ostoni dargahing tuprog'idur,

Rahm qil davlatli sultonim, muruvvat chog'idur.

(Увайсий. Мазмун маъдани. 209-б.)

Bandda tashbih, mubolag'a, ruju' talmih nido san'atlari vositasida oshiqning ruhiy
qiyoqasi chizib beriladi. Ya'ni birinchi bandda oshiq bag'ri lola guli yaproqlariga
tashbih etilsa, ikkinchi bandda oshiq bag'ri uning dog'lariga mengzaladi. Mazkur
o'rinda ruju' san'ati ham yuzaga keladi. Uchinchi misrada g'amlarining tog'
singari ko'p ekanligini ifodalash uchun "Ko'hkan"(Farhodning laqabi) ni keltiradi.
Bu orqali talmeh san'ati hosil qilingan. Keyingi ikki misrada esa nido san'ati
(ma'shuqasiga murojaat) mavjud.

Bo'lg'on ul "Qol-u balo"da ruhi Majnunvorman,

Oning uchun bu jahonda tolibi diydorman,

Vasfini etmakda doim sohibi ash'orman,

Jism-u jonim ostoni dargahing tuprog'idur,

Rahm qil davlatli sultonim, muruvvat chog'idur.

Uning diydor talab bo'lishiga, yorni vasf etuvchi ash'orlar bitishiga sabab azalda uning ruhi ishq bilan birga yaratilganligidir. Shu tarzda har bandda ma'shuqaga iltijo tarzida vosila bayt takrorlanib keladi va ayni mazmun keyingi bandlarda ham davom etadi. Mazkur tarji'band ham ramali musammani mahzuf(afoyili va taqt'i: foilotun foilotun foilotun foilun, – V – – / – V – – / – V – – / – V –) vaznida yozilgan.

Shoira lirikasida uchinchi tarji'band “May berib mast qil, ey mug'bacha, sulton o'lay” misrasi bilan boshlanadi. Hajman 7 band (har bir bandida 6 misra), jami 42 misradan iborat. Tarji'band quyidagi band bilan boshlanadi:

May berib mast qil, ey mug'bacha, sulton o'lay,
Bu gadoliq unutay, men Jamshidi davron o'lay,
Rahm qil holima, maqrubayi jonon o'lay,
Toki ishq o'ti aro qil kabi so'zon o'lay,
Yo ajal jomini tutkil bugun oson o'lay.

(Увайсий. Мазмун маъдани, 209-б.)

She'rda bayoni keltirilayotgan lirik qahramon bu dunyo kishisi emas. U ishqda bor-budini kuydirishni, sovurishni istaydi. Ayni lahzada oshiq uchun o'z vujudi yor(Mutlaq ruh)ga yetishga g'ov. Bu holat tasavvufda fanolik martabasiga yetishlikdir. U vahdati vujud – “Mutlaq ruh” bilan birlik hosil qilishning so'nggi marotibi. Ko'p o'rinxarda ayni holatdagi oshiqning quruq vujudini “xoshok”ka tashbih etiladi. Mazkur bandda esa u “qil”ga o'xshatilmoxda. Xashakka nisbatan qilning kuyishi tez – jiz etgan tovush oni kifoya. Kuyib kulga aylanadi. Ayni paytda u oshiq vujudi timsoli sifatida kelmoqda. Vosila bayt ma'shuqasi (Alloh) vasliga intiq bo'lib, betoqat talpinayotgan oshiq ruhiy holatini ifodalab kelgan. Qolgan bandlar ham xuddi shu tarzda vosila baytga mutanosib mazmunda davom etgan.

Shoira lirikasida so'nggi tarje'band ijtimoiy yo'nalishda bo'lib, u "Qil amon yo rab adular mojarosidin meni" misrasi bilan boshlanadi. Hajman 6 band (har bir bandda 6 misra), 36 misradan iborat. Tarje'band shoira yashagan davr va muhit bilan bog'liq. Muhammad Alixon (Madalixon)ning Koshg'arga yurishi voqeasi bilan kelib qolgan Hasan baqqol ismli kishi xonning farmoni bilan Uvaysiyning uyiga joylashishi, u Jahon otinga juda ko'p jabr-zulmlar qilganligi, shu sababli xonga arz qilib, najot berishini so'rab qilgan iltijolari bayon etilgan⁴¹.

Yuqoridagi fikrlardan shuni aytish mumkinki, shoira tarji'bandlarini o'ziga xos usulda va hajmda yaratadi. Uning ishqiy va ijtimoiy mavzular aks etgan tarji'bandlari orqali uning mahorat qirralarini ko'rish mumkin. Jumladan, ular mavzu va g'oyaning vaznga muvofiqligi, qofiya va badiiy san'atlarning mahorat bilan qo'llanishida namoyon bo'ladi.

Tarkibband arabcha "biriktirib bog'lamoq" ma'nosini bildirib, qofiyalanish tizimi va hajmiga ko'ra tarji'bandga yaqin turadi. Faqat undan farqli o'laroq, tarkibbandda har bandning maqta'si o'zaro qofiyalanuvchi va bir-birini takrorlamaydigan mustaqil baytlardan iborat bo'ladi. Jahon otin Uvaysiyning birgina tarkibandi bizga qadar yetib kelgan. Mazkur tarkibband "savol-u javob" san'atining noyob namunasidir. Tarkibband ishqiy mavzuda bitilgan bo'lib, yor vasfiga bag'ishlangan. Hajman 4 band (har bandda 6 band), jami 20 misradan iborat. Asar quyidagi band bilan boshlanadi:

Bir kecha soldi soyasini, raxshidur samand
Kim, sarv – qaddi, so'zi – asal, la'li no'shxand,
Ul tilg'a keldi og'zin ochib, shohi arjumand,
Bir ajdarini ko'rdim aning, girdidur kamand,
So'rdim: "Magar bu mor – af'idur", – dedim, dedi:
Yo'qkim yilon, bilki, azobingdurur saning!"

⁴¹ Mazkur tarji'bandga sharhning hojati yo'qligi sababli tahlil qilmadik.

(Увайсий. Мазмун маъдани, 2010. 211-б.)

Bandga ko’ra lirik qahramon ma’shuqasining qaddi sarv kabi tik, so’zlari asal singari shirin, la’ldek qip-qizil lablari juda chiroyli tabassum qiladi. Sochlari esa ko’rinishidan ajdar misol, atrofi to’la sirtmoqlar. Nega ma’shuqa oshiqning savoliga “sening azobingdir”, deya javob berdi ekan?

Tasavvuf adabiyotida ma’shuqa sochlari dunyo ramzi. Dunyo esa nafsoniy istaklar makoni, oshiq va ma’shuqa o’rtasida parda. Oshiqlar dunyoda o’z nafsoniy istaklaridan kechibgina yoriga yetishlari mumkin. Bu tasavvuf adabiyotida soch orqali yuzga yetishdir. Ammo unga yetish juda mushkul. Chunki chalg’ituvchi narsalar ko’p, har qadamda hijron, umidsizlik uni o’rtaydi, azoblaydi. Bandda tashbih san’ati faol qo’llanilgan: qaddi sarv daraxtiga, so’zi (shirinlikda) asalga, lablari (qizillikda) la’lga, sochlari (tuzilishi va rangi jihatidan) ilonga tashbih etilgan.

Sarv qaddini deymu va yo kaj kulohini,
Xunxor novakinimu, chashmi siyohini,
Yokim tavil zulfini, yo vajhi mohini,
Yo rab, qabul qilki g’aribingni ohini,
“Kavsar boshidakim na shafaqdur?” – dedim, dedi:
“Yo’x-yo’x, shafaqki, bag’ri xunobingdurur saning!”

Ko’rinadiki, ushbu bandda ham yor vasfi davom etmoqda. Ammo yuqoridagi banddan farqli o’laroq yorga tegishli har bir a’zo va narsalar uning go’zalligini ta’kidlash maqsadida bir-bir sanab o’tiladi. Yaxshilab e’tibor beradigan bo’lsak, sanab o’tilgan narsalar oldida kelgan sifatlovchilar o’zaro zidlik hosil qilib, taqqoslash mazmunini yuzaga keltirmoqda.

Sarv (tik) qad – egri kuloh;
Qonxo’r (qizil) kiprik – qora ko’z;

Uzun zulf (qora rangli, uzunligi pastga qaragan) – yuksak moh (nurli, tepada).

Bunday ifodadan “yorning qay bir jihatini misol qilib keltirmaylik, u baribir go’zallikda benazirdir”, mazmuni anglashiladi. Endi bandlar aro ozaro qofiyalanuvchi so’nggi baytga nazar tashlasak.

“Kavsar boshidakim na shafaqdur?” – dedim, dedi:

“Yo’x-yo’x, shafaqki, bag’ri xunobingdurur saning!”

Tasavvuf adabiyotida yor lablari oshiqqa abadiy hayot baxsh etadi. Shu jihatdan u afsonaviy obihayot suviga, jannatdagi kavsar bulog’iga menzaladi. Bu o’rinda “kavsar” yor labining xususiyatini, “shafaq” uning rangini ifodalab kelmoqda. Lab oshiqlarning maqsadi. Unga yetish visoldan bahramandlikdir. Ikkinchi misra esa oshiqning unga yetishi uchun qanchadan qancha mashaqqatlarni bosib o’tishiga bashoratdir.

Yuz shukr aylaramki, visoli farog’ina,

Yuz bo’sa aylaramki, toponda oyog’ina,

Yuz oncha shukr, chorladikim vasli bog’ina,

Yo rab, bu so’zni desa bo’lurmu qulog’ina:

“Kun yuzina yozan na sabaqdur?” – dedim, dedi:

“Qilg’on azal nasib kitobingdurur saning!”

Bandning dastlabki uch misrasida oshiqning shukronalik kayfiyati ifodalangan. So’nggi baytda yana tasavvufiy-ramziy tushunchalarni ko’ramiz. Mumtoz she’riyatimizda yorning yuzi porloqligi, sharafliligi jihatidan Qur’oni karimga, yuzidagi a’zolari esa ichidagi oyatlarga (shu sababli ham arab harflari yor a’zolarini ifodalab keladi: м (mim) – og’iz, ص (sod), ج (jim) – ko’z, . (nuqta) – xol, () (qavslar) – qosh...) tashbih etiladi. Mazkur bayt yor vasli – ishq oshiqning taqdir kitobiga azalda bitilganligi bashoratidir.

Gul yuzli, shahd so’zli, qaro ko’zli ul nigor,

Nargislari uzori aro misli navbahor,
Yuz mingta jon bir nigahig'adurur nisor,
Yo rab, qachonda yor bilan aylag'ung duchor?
“Hajri rahini turfa uzoqdur!” – dedim, dedi:
“Sabr aylayolmag’anki, shitobingdurur saning!”

Bandga ko’ra yorini qayta-qayta ta’riflash oshiqqa huzur bag’ishlaydi. Endi u yoriga tezroq yetishni orzulamoqda. Hijronda betoqatlanayotgan oshiq savoliga yor tasavvufda ishqning eng asosiy tamoyillaridan birini – “sabr”ni sabab qilib keltiradi. Tarkibbandga umumiylaz o’zaro, bandlar so’nggida keluvchi baytlar o’zaro mazmun jihatdan zanjir hosil qilganligini ko’ramiz. Ya’ni, dastlabki uch misrada yor ta’rifi bayon etilsa, har bandning so’nggi baytlarida tasavvufiy ishq tamoyillarini ko’rishimiz mumkin:

- 1-band: soch – oshiq uchun dunyo hijron, azob-uqubatlar makoni ekanligi;
- 2-band: lab – yor vasli yo’lida oshiq mashaqqatlarni boshidan kechirishi;
- 3-band: yuz – vasl (ishq) har bir oshiqning qismat kitobiga azaldan bitib qo’yilishi;
- 4-band: sabr – ishqning asosiy tamoyillaridan biri. Mazkur o’rinda shoiraning umumlirkasiga xos bo’lgan “qazoga rozi, baloga sobir”lik ifodasining yana bir bor ro’yobini ko’ramiz.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Uvaysiyning mazkur tarkibbandida tasavvufiy-ramziy ishq talqin etilgan. Shuningdek, she’rning har bandida ishqning har bir oshiq bosib o’tishi kerak bo’lgan asosiy tamoyillari bayon qilinadi. Bu g’oyalarning noyob badiiy san’atlar asosida ifodalanishi esa uni badiiyat jihatdan mukammal asar darajasiga ko’targan.

3-bob. Uvaysiy lirik mahoratining muhim badiiy qirralari.

3. 1. Uvaysiy lirkasining yetakchi badiiy tasvir vositalari.

Musulmon Sharq poetikasining tarkibiy qismlaridan biri ilmi badi' yoki sanoyi ilmi bo'lib, nutqqa bezak beruvchi, fikrni go'zal va mazmunli ifodalash usullarini o'rjanuvchi soha hisoblanadi. Ularning asosini mumtoz she'riyat, ba'zan nasrda keng istifoda etiladigan badiiy san'atlar tashkil etadi. Adabiy asarlarda she'riy san'atlardan foydalanish mahorati hamma davrda badiiy san'atkorlikning asosiy qirralaridan biri sifatida baholangan. Xususan, Jahon otin Uvaysiy lirkasida ko'plab rang-barang badiiy san'atlar qo'llanilgan. Uvaysiy ijodining badiiy qimmati, shoira san'atkorligining o'ziga xos qirralari uning badiiy tasvir vositalari va san'atlaridan amaliyotda foydalanish yo'llarida yanada konkretroq namoyon bo'ladi. Biz ularning ayrimlari misolida ham ijodkor badiiy tafakkurining yuksak darajasi haqida tasavvur hosil qilishimiz mumkin. Shoiraning badiiy san'atlardan foydalanish tamoyillarini quyidagi holatlarda ko'rish mumkin:

Birinchidan, muayyan timsol yoki predmet asosiga qurilgan g'azalda boshdan oxirigacha biror san'at yetakchilik qilishi mumkin. Ikkinchidan, bir she'r doirasida ko'plab badiiy san'atlar qo'llanilishi mumkin. Uchinchidan, bir qator she'rlar uchun (ba'zan bir bayt doirasida) bir nechta badiiy san'at yoki poetik usulning qo'shilib ketgan holda qo'llanilishi kuzatiladi. To'rtinchidan, aksariyat hollarda ijodkor o'z g'oyaviy niyati ifodasi uchun bir badiiy san'atni birlamchi darajaga ko'targani holda boshqa san'atlarni uning ro'yobi uchun xizmat qildiradi. Beshinchidan, shoira qaysi bir san'atni qanday janr yoki maqsadda qo'llamasin, har doim qat'iy tanosub – ma'no, tasvir va tasvir unsurlarining o'zaro mantiqiy mutanosibligi asosida ish ko'radi.

Badiiy san'atlar mohiyat e'tibori bilan uch guruhga ajratiladi: 1. Lafziy san'atlar. 2. Ma'naviy san'atlar. 3. Mushtarak san'atlar. Lafziy san'atlar nutqning ifoda usuli, xususan, so'z shakli bilan aloqador bo'lib, Atoulloh Husayniy ular sirasiga tarsi', tajnisli tarsi', tajnis, radd(qaytarish) va uning turlari, qalb va uning

turlari, sa’j tashtir, tajziya, tasri’, tasmit, aks, tardid, tashri’, zulqofiyatayn, tavshih, talavvun, mulamma, muqatta, muvassal, jam’ ul-huruf, mudavval, mukoshala va boshqa san’atlarni kiritadi. Olimning fikricha lafziy san’atlar ijodkor yetkazmoqchi bo’lgan fikrni yuksak badiiy shaklda ifodalashga xizmat qilishi kerak. Biz quyida Jahon otin Uvaysiy lirikasida qo’llanilgan san’atlarni, asosan, uchta katta guruh doirasida ko’rib chiqamiz.

Shoira she’riyatida nisbatan ko’p qo’llanilgan lafziy san’atlardan biri radd ul-matla’ bo’lib, bu san’at g’azal matla’idagi birinchi misraning maqta’da, ba’zan she’r tarkibidagi baytlardan birida takrorlanib kelishiga asoslanadi. Bu tarzdagi takror (tasodifiy bo’lmasdan) muayyan poetik maqsadga ega bo’lib, maqta’da ilgari surilgan fikr keyingi baytlarda rivojlantirilib boriladi. Shuningdek, she’r nihoyasida misrani takrorlash orqali o’sha fikr yangicha uslub, ifoda va mazmun kasb etadi⁴².

Uvaysiy g’azallarida **radd ul-matla’** san’atining deyarli barchasi matla’dagi birinchi misra maqta’ning so’nggi misrasida aynan takrorlanib kelishiga asoslangan. Shoira ijodi davomida ushbu san’atga ko’p bor murojaat qilgan.

Yozma tumoringni umr, ey gul, kerakmasmi sengo,

Berma ko’p xoringga yo’l bulbul kerakmasmi sengo.

Vaysiy gul qon bag’rini yozdi-yu uzdi bog’bon,

Yozma tumoringni umr, ey gul, kerakmasmi sengo⁴³.

Ma’lumki, mumtoz sheriyatimizda gul deganda hali ochilmagan, qavat-qavat yaproqli, tikanli, qip-qizil atirgul g’unchasi tushuniladi. Bulbul – oshiq timsoli. Lirik qahramon guliga “yaproqlaringni yozma ya’ni ochilmagin senga umr kerak emasmi?” deydi. Chunki oshiq guli ochilsa, yanada go’zal bo’lib ketadi. Uni kimdir uzib olishi, yoki shamol nafis yaproqlarini sovurib yuborishi mumkin.

⁴² Ҳожиаҳмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия – Т.: Шарқ, 1998. 109-б.

⁴³ Увайсий. Девон.: Тузувчилик: А. Қаюмов, Э. Иброҳимова. – Т.: 1959. 45-б.

Oshiq shundan xavotirda. Keyingi misrada yana yoriga xitoban "Hadeb ozor beravermagin. Senga oshiq kerak emasmi?" deydi. Ushbu baytda "gul" yor manosini ifodalagan bo'lsa, maqta'da u oshiqning qat-qat bo'lib ketgan qonli bag'riga tashbih etilgan. Bog'bon ham o'z ma'nosida, ham Alloh ma'nosida kelgan. Uvaysiy qat-qat bo'lib ketgan qonli bag'rini yozganida umr guli uzilganligini ma'shuqasiga dalil sifatida keltirib, guliga tumorini yozmaslikni qat'iy ta'kidlaydi. Uvaysiy ijodida radd ul-matla' san'ati g'azaldagi bosh g'oya, fikr, xulosa yoki uning ayrim jihatlarini ta'kidlash va urg'u berish vazifasini bajargan.

Lafzij san'at tarkibiga kiruvchi **takrir** badiiy san'ati ham Uvaysiy lirikasida alohida o'rin egallaydi. Ma'lumki, takrir "takrorlash" ma'nosini ifodalovchi san'at bo'lib, she'rda u yoki bu so'zni takror qo'llashni nazarda tutadi. Takrorlash vositasida so'z ma'nosini, uning mohiyatini ta'kidlab ko'rsatish ushbu san'atning asosiy xususiyati sanaladi⁴⁴. Uvaysiy ijodida bu san'at ikki xil ko'rinishda namoyon bo'lган: 1. G'azal boshidan oxirigacha takror san'ati asosida yaratilgan. 2. G'azalning ma'lum bir misrasi takrorga asoslangan.

Kimdurur ishqini, jono, oshkor etmas senga?

Kimdurur ko'zdin jigar qonin nisор etmas senga?

Kimdurur shavqing aro tarki nasihat etmagan,

Kimdurur nosehga dushman, o'zni yor etmas senga?

(Увайсий. Мазмун маъдани. 17-б.)

Yetti baytli ushbu g'azalda "kimdurur" so'roq olmoshi to'qqiz marta takrorlanadi.

Takrir san'atining ikkinchi ko'rinishini "Hiloli avji gardun go'shayi tarfi kulohimdur, Nechunkim, bu malaksiymo maqomi borgohimdur", matla'li g'azalida uchratamiz. Ma'shuqaning ozorlari natijasida oshiqning ruhiy iztiroblari va iltijolari ifodalangan mazkur g'azalning to'rtinchi bayti quyidagicha:

⁴⁴ Ҳожиаҳмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қоғия – Т.: Шарқ, 1998. 100-6.

Mening rangimga boqmay, ey parivash, necha injitmak,
Gunohimdur, gunohimdur, gunohimdur, gunohimdur.

(Увайсий. Мазмун маъдани. 64-b)

Baytda takror san'ati vositasida oshiqning iqrori, dardi, sadoqati va iltijolari ifodalangan.

Kitobot san'ati ham Uvaysiy she'riyatida qo'llanilgan eng faol san'atlardandir. Ushbu san'at arab alifbosi harflari shaklidan lirik va epik timsollar chizishda foydalanishni nazarda tutadi⁴⁵. Misol uchun shoiraning quyidagi g'azaliga e'tiboringizni qaratsak:

Kilki san'at ila yozg'on jim jamol ustindadur,
Xatti mushkin obi hayvoni zulol ustindadur.

(Увайсий. Мазмун маъдани. 61-b.)

Mumtoz she'riyatimizda ՚ (alif) yorning tik qomatiga, ڽ (nun) va ݞ (dol) oshiqning egilgan qaddiga ܂ (jim) esa yor ko'zlariga mengzaladi. Misraning birinchi ma'nosi quyidagicha: Buyuk Yaratuvchi san'at qo'li bilan yaratilgan ko'z jamol – yuzning ustida joylashgan. Ikkinci ma'nosi esa: San'at qo'li bilan yozilgan ܂ (jim) harfi ݢ (jamol) so'zining ustida turibdi. Yorning mushk isli xatti – tuklari tiriklik suvi singari hayot baxsh etuvchi lablarining ustida joylashgan.

Orazining orzusidin qadimdur oncha ham,
Kotib imlosindakim, xurshid dol ustindadur.

Baytda yor orazi xurshidga, oshiq qaddi ݞ (dol) ga tashbih etilgan. Baytning birinchi ma'nosi: Yor jamoli orzusida qaddim kotib imlosidagi ݞ (dol)ga o'xshaydi, yorning jamoli esa egilgan oshiq ustida porlab turuvchi quyosh singaridir. Ikkinci ma'nosi: Kotib imlosidagi رشدوخ (xurshid) so'zi ݞ (dol) harfining ustida joylashgan.

⁴⁵ Ҳожиаҳмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қоғия – Т.: Шарқ, 1998. 103-6.

Ey ko'ngul, rom aylamaklikda nigohin istama,

Qavslarkim, ikki ohuyi g'izol ustindadur.

Mumtoz she'riyatda ma'shuqaning har bir a'zosi o'ziga xos vazifalar bajaradi. Masalan, yor lablari – oshiqqa hayot bag'ishlash yoki jon olish; ko'zlari – ovlash, rom etish; kipriklari – oshiqni nayza kabi jarohatlash; qoshlari ko'p o'rinda mehrobga, hilolga, qilichga mengzalgani sababli – qatl etish xususiyatlariga ega. Mahoratli shoira mazkur baytida yor qoshlarini qavslarga tashbih etib, ularga yana bir yangi vazifa yuklaydi. Oshiq o'z ko'ngliga xitoban “ Ey ko'ngil, sen ma'shuqangga rom bo'lish uchun uning nigohini istamay qo'yaver, chunki ohu kabi ikki ko'zlarining ustida qavslar – ovlash uchun qopqonlar turibdi”, deydi.

Zarralig' kasbini tavqi bandalig' olmay netay,

Oftobikim ajab sarvi nihol ustindadur.

Baytda tazod va tashbih san'ati vositasida go'zal badiiy manzara yaratilgan. Vo ajab. Bu oftob singari yorning yuzi sarv niholi yanglig' tik qomatining ustida turibdi. Men zarralik kasbini – bo'yinsunishni bo'ynimga olmay boshqa yana nima ilojim bor. Baytda “oftob” ma'shuqani – yuksak, nur manbai yani zarraga nisbatan butunlik ma'nolarini, “zarra” esa oshiqni – oftobga nisbatan past va qismni ifodalab kelgan bo'lib, zidlikni hosil qilgan.

Nutqi shiriningga sen xomushlig' sarpo'shin et,

Vahki, g'avg'oyi magas bilsangki bol ustindadur.

Oshiq yoriga xitoban: ”Sen bu shirin nutqingga xomushlik bolidan qo'shgin”, deydi va fikrining dalili sifatida hayotiy misol keltiradi: ”Agar bilsang, asalarining g'avg'osi bolning ustida bo'ladi”.

Asra, yo rab, diydayi baddin va hosid ahlidin,

Dilbari Yusuqliqo avji kamol ustindadur.

Oshiq Yusufliqo dilbarini yomon ko'zdan va hasadchilar ahlidan asrashini Ollohdan so'raydi, chunki ayni chog'da yorining go'zalligi avji kamolida. Baytda Yusuf nomi orqali talmeh san'atiga murojaat qilingan.

Vosifi yor o'ldi, Vaysiydin gadolig' istama,

Majlisi mazmun aro taxti xayol ustindadur.

Bayt uchinchi shaxsga murojaat tarzida bitilgan: Uvaysiy yorini vasf etdi, Sen undan gado bo'lishini so'ramagin, chunki u mazmun majlisida, yorini xayol surib taxt ustida o'tiribdi". Tazod san'ati gadoliq va taxt so'zlari zidligidan hosil qilingan bo'lib, u yor xayoli ila sarmast oshiqning ruhiy manzarasini ifodalashga xizmat qilgan.

E'tibor beradigan bo'lsak, g'azalning har baytida badiiy san'at mavjud. Jumladan, 1-baytda: tashbih, kitobot, mubolag'a; tashbih, kitobot, mubolag'a; 2-baytda: tashbih, kitobot, mubolag'a; 3-baytda: kitobot, yashirin tashbih; 4-bayt: tazod, mubolag'a; 5-bayt: tamsil; 6-bayt: tashbih, talmeh; 7-bayt: tazod.

Mazkur badiiy san'atlar shoiraning mazmunan, salmoqli fikrlarini yuksak badiiy shaklda ifodalashga xizmat qilgan. Shu bilan birga g'azal kitobot san'atining shoira ijodidagi eng go'zal namunalaridan biri.

Uvaysiy lirikasida abjadga, ya'ni arab harflarining son qiymatiga asoslangan bir turkum ijod namunalarini ham uchratamiz. Shoiraning "dutor", "qog'oz", "Falotun" chistonlari shular jumlasidandir. Misol sifatida "dutor" chistoniga murojat etaylik:

Ul na: boshi to'rt, bo'yni oltidur, sohib suxan,

Beli to'rt yuz, poyi bir, joni ikki yuz rohzan?

Tong ermas, dil muddaosi bo'lsa hosil, ey gado,

Bul Azizi Misrdurkim, Yusufi gulpirahan.

(Увайсий. Мазмун маъдани. 212-b.)

She’rda ifodalanga abjad hisobini birlashtirsak, to’rt – د (dol), olti – و (vov), to’rt yuz – ت (te), bir – ا (alif), ikki yuz – ر (re) دوتار (dutor) nomi kelib chiqadi. Chistonning javobiga ishora qiluvchi unsur faqatgina abjad hisobi emas. Dutor sozi va so’zini tuzilishi jihatidan qismlarga – boshi, bo’yni, beli, poyi va joni singari besh bo’lakka bo’lib tavsif beriladi. Shuningdek, unga xos xususiyatlar – sohib suxanligi va Yusuf singari chiroyli hamda barchaga manzur ekanligi bayon etilgan.

Harf san’atiga asoslangan yana bir badiiy san’at **muvashshah** (tavshih) bo’lib, Uvaysiy she’riyatida mazkur san’atga asoslangan ko’plab namunalarni uchratamiz. “Muvashshah” yoki “tavshih” so’zi “bo’yinga arg’amchi solib oro berish” ma’nosini bildirib⁴⁶, istilohda she’r misralari boshida, o’rtasida bir necha harf yoki so’zni qo’shib o’qiganda biror so’z, she’r hosil qilishga asoslangan lafziy san’atdir. Mazkur san’atga shoiraning yetti baytdan iborat “Fosid ermish senga qilmog’i meni zor gila, Agar o’tsa menidin, afv qil meni yor, gila” (Увайсий. Мазмун маъдани. 147-b) matla’li g’azalini misol sifatida keltirish mumkin.

Oshiqning sharhi holi ifodalangan mazkur g’azalning maqta’sida berilgan ishoraga ko’ra harflarni birlashtirsak, فر صحن (farso’xo’n) so’zi kelib chiqadi. Far ف forscha 1. Porloqlik, hashamat, savlat, shukuh; 2. Qadr, qiymat, izzat. Suxan سخن forscha so’z, nutq, ifoda ma’nolarini anglatadi va ular “qiymati yuksak nutq” mazmunini ifodalaydi.

Shuningdek, “fo’lodqalam”, “MirzoRahimxon”, “Jahon” ismlariga bitilgan muvashshahlarni ham uchratamiz. Uvaysiy she’riyatida mazkur san’at namunalarini yana ko’plab uchratish mumkin.

Badiiy san’atlarning ikkinchi katta guruhi ma’noning birlamchiligiga asoslanib, badi’ ilmida ma’naviy san’atlar deb yuritiladi. Mumtoz she’riyatimizda shunday ma’naviy san’atlar va tasvir vositalari borki, ular badiiy ijodning muhim tarkibiy qismiga aylanib ketgan. **Tashbih, istiora, mubolag’я** kabi san’atlar shular jumlasidandir. Misol sifatida quyidagi g’azal baytlariga nazar tashlasak.

⁴⁶ Мухаммад Фиёсуддин. Фиёсул-луғот. жилди I. Душанбе.: Адиб, 1988. С. 213

Chamanda gul – yuziga qul, qadig'a – sarvi ozodi,

Ko'z-u zulfig'a – nargis birla sunbul, bir parizodi.

(Увайсий. Мазмун маъдани. 164-b)

G'azal matla'sida gul, sarv, nargis, sunbul yorning yuzi, qaddi, ko'zi, zulfiga qul bo'lishni istashi tashxis (jonlantirish)ni vujudga keltiradi. Shuningdek baytda yashirin tashbih ham bor. Mazkur g'azalning oltinchi bayti quyidagicha:

Yuz-u zulfin, qadi ra'nosini ko'rg'onda dermishman:

"Ham ul glandur, ham ul sunbul, ham ul bir naxli shamshodi".

Oshiq yorining yuzini gulga, zulfini sunbulga, qaddini shamshod daraxtiga tashbih etadi. Shuningdek baytda birlamchi badiiy san'at – tashbihga asoslangan **laff va nashr** san'ati. Yig'ish va yoyish ma'nosini ifodalovchi ushbu san'at she'r baytida avval bir necha narsa yoki tushuncha nomini ketma-ket keltirib, keyin ular haqidagi hukmlarni ketma-ket bayon qilishni nazarda tutadi⁴⁷. Yuqorida keltirilgan g'azalning har ikki baytida tashbih boshqa san'atning yuzaga chiqishi uchun vosita vazifasini bajargan.

Istiora badiiy san'ati ham shoira lirkasining ajralmas bir bo'lagi hisoblanadi. "Biror narsani vaqtincha omonatga olmoq" ma'nosini ifodalab, adabiy asarda so'zni o'z ma'nosidan boshqa bir ma'noda, aniqrog'i uni haqiqiy ma'nosida emas, balki majoziy bir ma'noda qo'llash san'ati sanaladi. U o'xshashlikka asoslanadi va tashbihi kinoyaga teng keladi⁴⁸. Masalan, Uvaysiyning

Ey gul, jigarim qoni uzoringga munosib,

Yuz porali ko'nglim dog'i xoringga munosib.

(Увайсий. Мазмун маъдани. 30-b)

Baytida oshiq haqiqiy "gul"ga emas, gul kabi go'zal mahbubaga murojaat qilmoqda. Ikkinchi misradagi xor so'zi ham tikan emas, ozor manosida kelgan.

⁴⁷ Ҳожиаҳмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қоғия – Т.: Шарқ, 1998. 42-б.

⁴⁸ Ҳожиаҳмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қоғия – Т.: Шарқ, 1998. 53-б.

Shuning uchun ular istiora hisoblanadi. G’azalning to’rtinchi baytida ham mazkur san’atga murojaat qilingan:

To qildi muattar xati rayhoni sahargoh,
Xushhollig’im husni bahoringga munosib.

“xati rayhon” va “husn bahori” birikmalari istioraning aniq narsa, tushunchalarni ifodalovchi so’zlarga u bilan tashbihiy munosabatda bo’lgan so’z qo’shilib istioraviy ifodani hosil qiluvchi turiga kiradi. Oltinchi baytga ham nazar tashlasak:

Dil mazraini pok etibon muntazir o’ldum,
Bo’lg’aymu ekin tab’ guzoringga munosib.

“dil mazrai” va “tab’ guzori” birikmalari mavhum tushunchalarni ifodalovchi so’zlarga aniq narsa nomini anglatuvchi otlar qo’shilib, istiora hosil qiluvchi turiga kiradi.

Uvaysiy ijodida **mubolag’a** san’atidan ham ustalik bilan foydalanilgan. Ma’lumki, mubolag’a (ar. – kattalashtirish, kuchaytirish) adabiy asarda tasvirlanayotgan badiiy timsol harakati yoki holatini bo’rttirib, kuchaytirib ifodalash san’ati bo’lib, bu xil tasvirda badiiy timsol xususiyatlari yanada yaqqol namoyon bo’ladi, o’quvchi ko’z oldida yorqinroq gavdalanadi⁴⁹. Mubolag’aning quyidagi 3 darajasi mumtoz adabiyotimizda, xususan Uvaysiy ijodida ham keng qo’llanilgan:

1) **tabligh’** (ar.yetkazmoq) – aqlan ishonish mumkin bo’lgan, hayotda ham yuz berishi mumkin bo’lgan mubolag’a. Bunda bo’rttirib tasvir qilinayotgan hodisa yoki xususiyat aqlga to’g’ri keladi va ba’zan qiyinchilik bilan bo’lsa-da, amalga oshishi ham mumkin:

Vasl o’lsa jahon xo’bi firog’ing sog’inurman
Kim, anjumane ichra so’rog’ing sog’inurman.

⁴⁹ Ҳожиаҳмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қоғия – Т.: Шарқ, 1998. 9-6.

Oshiq ko'ngil qo'ygan ma'shuqasini butun jahon go'zallaridan ustun qo'yib sog'inishi mubolag'ali tasvir, lekin bu holatni aqlan tasavvur ham qilish mumkin va ba'zan hayotda ham uchrab turadi. Endi quyidagi baytlarga nazar tashlasak:

Hiloli avji gardun go'shayi tarfi kulohimdur,
Nechunkim, bu malaksiymo maqomi borgohimdur.
Oqorg'on diyda yanglig' intizoring shiddati birla,
Yo'lingda umrlardur muntazir o'lg'on nigohimdur.

Osmonning egilib turgan uchi kulohim tepasining bir uchidir. Nima uchun bu malaksiyoning qasri yetib bo'lmas darajada. Tasvirlanayotgan ushbu hodisani aqlan qabul qilish mumkin emas hamda bunday hodisa hayotda ham yuz bermaydi. Bu mubolag'aning 3-darajasi – **g'uluvv** (ar. – qo'lni imkon qadar baland ko'tarish) hisoblanadi.

Keyingi baytda esa umri davomida ma'shuqasi yo'liga intizor bo'lib, kutaverGANidan ko'zlari oq bo'lib, ko'rmay qolgan oshiq ahvoli ifodalangan. Bu mubolag'aning 2-darajasi – **ig'roqni** hosil qiladi. Ig'roq (ar. kamonni qattiq tortmoq) – aqlan ishonish mumkin bo'lsa ham, hayotda yuz bermaydigan mubolag'a. Yuqorida ifodalangan tasvirni o'quvchi ko'z oldiga keltirib tasavvur qila oladi, biroq uning hayotda sodir bo'lishi mumkin emas.

Shoira ijodida **tajohuli orif** san'atiga ham ko'p bora murojaat qilingan. "Bilib turib bilmaslikka olish" ma'nosini ifodalovchi ushbu she'riy san'at ijodkorning baytda aks ettirayotgan biron obrazli iborani aniq aytmasdan o'zini bilib bilmaslikka olgandek nazarda tutadi. Mazkur san'at namunasi bo'lga quyidagi g'azalning ba'zi baytlariga to'xtalib o'tsak:

Ko'rundi bir pariro' ko'zga yo navras niholimmu?
O'zidur laylivash ahvoli ham Majnun misolimmu⁵⁰?

⁵⁰ Увайсий. Девон.: Тузувчилик: А. Қаюмов, Э. Иброҳимова. – Т.: 1959. 238-6.

Bir pari yuzli ko'zimga ko'ringanday bo'ldi. Yoki bu ko'ringan yoshgina niholimmikin. Yoki bo'lmasa, bu go'zalning ahvoli ham xuddi Majnunga o'xshab qoldimikin?

Tamosholar qilib baytullodin oshufta holimg'a,

Falakdek rashki kavkabdek ko'zi abri hilolimmu?

Baytullodan turib mening parishon ahvolimni tamoshlo qilganlar xuddi osmon va yulduzlarga o'xshagan yorimning egilgan qoshlari bilan ko'zlarimikin?

Yoshurdim gavhari dil misli juftoq ishq ilkida

Topub ilkina olg'on istamakdin bemalolimmu?

Dil gavharini ishqning ikki qo'liga yashirdim. Yoki u yorim dil gavharini topib, qo'liga olishni o'ziga malollik deb bilmaydiganmikin?

Yetti baytli ushbu g'azalning qolgan baytlari ham tajohuli orif san'ati namunasi. Yuqoridagi misralardan ko'rinishda turibdiki, tajohuli orif san'ati asosan savol ko'rinishida ifodalananadi, asarning lirik qahramoni o'quvchiga savol bilan murojaat qilayotgandek, o'zi aniqlay olmagan narsani bilib olishga yordam berishni so'rayotgandek bo'lib ko'rindi. Lekin bu savol oddiy emas, unga javob topish ham oson emas. Uvaysiuning Navoiy g'azali izidan yozilgan"ekin oyo" radifli uchta g'azali ham mazkur san'atning yaqqol namunalari deyish mumkin.

Ma'naviy san'atlardan yana **irsoli masal, tamsil va husni ta'lil** Uvaysiy badiiy mahoratini namoyon qiluvchi san'atlardandir. Irsoli masal "arabcha – maqol yoki matal yuborish" ma'nosini bildirib, she'riyat va nasrda ifodalananayotgan biron fikrni isbotlash uchun mashhur maqol, ibora yoki hikmatli so'z keltirishga asoslangan san'atdir⁵¹.

Shoiraning "Bo'ldim duchor ko'ngli qattiq bag'ri toshqa" misrasi bilan boshlanuvchi g'azalining uchinchi va o'ninchisi baytlari **irsoli masal** san'atining yaqqol namunasi sifatida e'tiborni tortadi:

⁵¹ Ҳожиахмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия – Т.: Шарқ, 1998. 59-6.

Keldi muhabbatting ko'yi tushdim yuzim tuban,

Har kim yiqilsa to'yjadi hargiz kuroshqa⁵².

Oshiq yoriga “sening muhabbatting ko'chasiga kelgan edim, yuzim bilan yiqildim”, deydi. Shu o'rinda “ yuzi bilan yiqilmoq” birikmasiga e'tibor beraylik. Inson kamdan-kam hollarda, kutilmaganda, tasodifan yuzi bilan yiqilishi mumkin. Demak, muhabbat yo'lida kutilmagan sinovlar, mashaqqatlar bor. Oshiq o'zining va o'zi kabi ko'plab oshiqlarning ishq yo'lining mashaqqatlariga taslim bo'lmasligi, bu yo'lida sobit ekanligini mashhur “Yiqilgan kurashga to'ymas” maqoli vositasida ifodalaydi.

Vaysiy jahondin o'tdi murodiga yetmayin,

To'ymoq rusumi yo'qtি qorin suygan oshqa.

“Uvaysiy yor visoliga to'ymay – murodiga yetmay bu dunyodan o'tdi”, deydi va “yorning vasli shunchalar yoqimli va huzurbaxshki, uni ko'rib kishi to'ymaydi” ma'nosini ifodalash va buni dalillash uchun mashhur “Suygan oshga qorin to'ymas” xalq iborasini keltiradi.

Shoiraning “Istadim jononani jondin kechib xirmon aro” misrasi bilan boshlanuvchi g'azalida ham ushbu san'atni uchratamiz.

Kim junun tumora berkittim muhabbatdin asar,

Nofa bo'yi to qachon tamkin qilur pinhon aro? ⁵³

Muhabbat nishonalarini telbalik – savdoyilik ichiga o'rab berkitgan oshiq buning imkonи yo'q ekanligini mashhur “Mushk isin yashirib bo'lmas” maqoli vositasida dalillarydi. Ushbu badiiy san'at ijodkorning keng mazmunli fikrlarini ixcham, lo'nda, sodda til bilan, ta'sirchan ifodalash vositasi sifatida xizmat qilgan.

Tamsil – “arabcha dalillash ma'nosini bildirib, she'r baytining birinchi misrasida ifodalangan fikrga dalil sifatida ikkinchi misrada hayotiy bir hodisani

⁵² Увайсий. Девон.: Тузувчилик: А. Қаюмов, Э. Иброҳимова. – Т.: 1959. 243-6.

⁵³ Увайсий. Девон.: Тузувчилик: А. Қаюмов, Э. Иброҳимова. – Т.: 1959. 23-6.

misol qilib keltirishga asoslangan badiiy san'at.⁵⁴ Bunda birinchi misradagi fikr bilan keltirilgan misol o'rtasidagi munosabat, ya'ni mantiqiy aloqa ko'pincha qiyosiy yo'naliishda bo'ladi. Ushbu san'at mohiyatiga ko'ra irsoli masal san'atiga o'xshab ketsa-da, fikrning, maqsadning isboti uchun hayotiy dalillar keltirishi bilan undan farqlanadi, chunki irsoli masalda mashhur maqol, ibora, hadis yoki hikmatli so'z dalil sifatida keltiriladi. Bu san'at Uvaysiy lirkasida eng faol qo'llanilgan san'atlardan deyish mumkin. Shoiraning “Bu kun arz aylag'ay mendek gadolar podshohig'a” misrasi bilan boshlanuvchi g'azalining to'rtinchi bayti quyidagicha:

Ajab ermas bu dunyo kulfatidin senga arz etsam,

Qochar bir qushni bir qush quvsu, bir buzruk panofig'a⁵⁵.

Ya'ni, “Ey shohim, bu dunyo kulfatlaridan senga arz qilishim ajablanarli emas, chunki (hayotda ham) bir qushni bir qush quvsu, ulug'roq qush huzuriga panoh istab boradi-ku”, deydi.

“Furqating taryoqdek mastlig'din etkan erdi sog” misrasi bilan boshlanuvchi g'azalning uchinchi baytida ham ushbu san'atga murojaat qilingan.

Vasldin ishq hosil o'lg'ay, ishqdin hajr otashi,

Pilta-yu yog'din na hosil, yonmasa sham'i charog'.

(Увайсий. Мазмун маъдани. 86-b.)

Ma'lumki, tashbih – o'xshatish ko'plab san'atlar bilan uyg'unlikda qo'llanilib, ularning yuzaga chiqishida asos vazifasini bajaradi. Baytda sham – oshiqqa, yog' – ishqqa tashbih etilgan bo'lib, “agar oshq hijron otashida kuymaydigan bo'lsa, ishqdan, vasldan nima foyda (chunki hijron oshiq ruhini poklaydi)”degan fikrni hayotiy sodda bir misol orqali ikkinchi misrada keltiradi.

“Bu hijron zulmati ichra nechalar mohg'a muhtoj” misrasi bilan boshlanuvchi g'azalning to'rtinchi bayti ham tamsil san'ati namunasidir.

⁵⁴ Ҳожиаҳмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қоғия – Т.: Шарқ, 1998. 24-6.

⁵⁵ Увайсий. Девон.: Тузувчилар: А. Қаюмов, Э. Иброҳимова. – Т.: 1959. 246-6.

Tag'ofil birla ko'rsang yorni ey dil umid uzma,

Mudom ul kahrabo saqlar o'zini kohg'a muhtoj⁵⁶.

Baytda qo'llanilgan “kahrabo” so'zi somonni o'ziga tortish hususiyatiga ega bo'lган bir turli tosh, “koh” – somon parcha ma'nosini ifodalaydi. Baytning mazmuni quyidagicha: Yorning seni ko'rib, bilib turib o'zini bilmaslikka olishini ko'rsang ey dil, umidingni uzmagin, kahrabo toshi qancha o'zini saqlagani bilan doim kohga muhtoj bo'ladi. Bu o'rinda ham kahrabo ma'shuqqa, koh oshiqqa tashbih etilib, ma'shuq doim mana shunday oshiqni o'ziga tortib turadi mazmunidagi fikrni ikkinchi misrada dalil qilib keltiradi.

“Bo'ldi jon paydo anga har kim bo'lur jondin judo” misrasi bilan boshlanuvchi g'azalida ham tamsilni ko'ramiz.

Til agar mazkurlig'da o'lsa nodonlig' bu dam,

Korvon yo'ldan adashqay mohi tobondin judo.

(Увайсий. Мазмун маъдани. 21-б.

Tasavvuf talqiniga ko'ra zikr oshiq qalbini dunyoviy hoy-havaslardan poklaydi, natijada oshiq ishq yo'lida sobit borib, vaslga muyassar bo'ladi. Bu o'rinda ham zikr oshiq yo'lini yorituvchi oyga tashbih etilmoqda. Baytning mazmuni esa quyidagicha: ”Agar tilim yor zikrini aytishdan bir nafas to'xtaydigan bo'lsa, xuddi oy yo'q bo'lib qolganda karvon yo'lidan adashgani kabi yo'limni yo'qotaman”. Ikkinchi misradagi tamsil bayt mazmunini to'liqroq anglashimizga yordam beradi.

Shoira badiiy mahoratini namoyon etuvchi yana bir badiiy san'at **husni ta'lildir**. Arabcha “chiroylı dalillash” ma'nosini anglatadi. Biror voqeani unga bevosita dahli bo'limgan boshqa bir hodisa bilan izohlash san'ati bo'lib, unda shoir o'zi tasvir etayotgan hodisaga biror go'zal sabab ko'rsatadi.⁵⁷ Bu asoslash mantiqiy yoki hayotiy bo'lmasdan, aksincha, xayoliy, shoirona shaklda namoyon bo'ladi, aynan, shu xususiyati bilan irsoli masal va tamsil san'atlaridan farq qiladi.

⁵⁶ Увайсий. Девон.: Тузувчиликлар: А. Қаюмов, Э. Иброҳимова. – Т.: 1959. 92-б.

⁵⁷ Ҳожиахмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қоғия – Т.: Шарқ, 1998. 27-б.

“Ruxing uzra ikki gisuyi shabrangging tutoshibdur, Ki ganj ustida go’yo iki ajdar taloshibdur”⁵⁸ matla’li g’azalning ikkinchi va uchinchi baytlarida ushbu go’zal san’atni uchratamiz. Matla’ning o’zida esa tamsil mavjud.

Gul ermas, gulshan ahli ko’zlari qon ila to’ldirmish,

Tegib g’amzang o’qi nechunki har yondin qaroshibdur.

Gulning o’zi emas, butun gulshan ahlining ko’zlari qon bilan to’lgan emish. Buning sababi sen noz bilan, suzilib qaraganingda gullarning hammasi senga boqib turgan edi, qarashlaring o’qi gulshan ahlining ko’zlarini yaralab, qon bilan to’ldirdi. Ya’ni gullarning qizil bo’lishiga sabab, yor g’amzasining o’qi gullarning ko’zlarini yaralaganidandir.

Shafaq ermas, yuzing hijronida xurshidi xovardur,

Ani o’tlig’ tanidin charxni o’ngri tutoshubdur.

Ya’ni, u osmonda ko’ringan shafaq emas, sening yuzing ayrilik’ida o’t bo’lib yonayotgan Sharq quyoshidir. Quyoshning o’tlig’ tanasiga osmonning ham bir uchi tutashib ketibdi.

“Ko’rinur bog’ aro bir dilbari goh rost, goh kaj” misrasi bilan boshlanuvchi g’azalning beshinchi bayti quyidagicha:

Kecha-kunduz boshingdin tinmayin aflok o’gruldi,

Qamardin rashk etib shams anvari goh rost, goh kaj.

(Увайсий. Мазмун маъдани. 42-б.)

Falak (ham senga oshiq bo’lib) boshingdan kecha-kunduz tinmay aylandi. Quyosh esa seni oydan rashk qilganidan goh to’g’ringga turib oladi, goh egriga.

⁵⁸ Увайсий. Девон.: Тузувчилик: А. Каюмов, Э. Иброҳимова. – Т.: 1959. 110-б.

Uvaysiy ijodida ma’naviy san’atlar tarkibiga kiruvchi savol-u javob san’atini ham uchratamiz. Bizga qadar yetib kelgan birgina tarjibandi bunga misoldir (uning tahlili avvalgi bobda berilgan).

Shuni ta’kidlash joizki, irsolli masal, tamsil va husni ta’lil san’atlari birinchi misrada aytilgan fikrga ikkinchi misrada dalil sifatida kelishi jihatidan umumiylit kasb etib, shu dalilning mashhur maqol, hayotiy misol yoki shoirona badiiy sabab keltirilishi jihatidan farqlanadi.

Uvaysiy lirkasida ham lafzga ham ma’noga aloqador bir qator mushtarak san’atlar istifoda etigan bo’lib, jumladan, biz tajnis, tazod, iqtibos san’atlariga to’xtalib o’tamiz. Tajnis (ar. – jinsdosh, hamjins) baytda shaklan bir xil yoki bir-biriga yaqin so’zlarni qo’llashga asoslangan she’riy san’at bo’lib⁵⁹, asosan nazmda, ba’zan nasrda ham qo’llaniladi. Mazkur san’atni shoiraning g’azallari, tuyuqlari va fardlari tarkibida uchratamiz. Yetti baytli “o’lturg’usi” radifli g’azalga e’tiboringizni qaratsak:

Vasling tuni oshiqlaring ul masti xob o’lturg’usi,
Bedorlig’ chog’i yana sharmi hijob o’lturg’usi.

(Увайсий. Мазмун маъдани. 178-b.)

Vasling kechasi oshiqlaring mast uyqusida o’tiradi. Xushyor bo’lgan chog’ida esa hayo pardasi ichida o’tiradi. Baytda oshiqning holati nuqtai nazaridan masti xob bilan sharmi hijob, vaqt nuqtai nazaridan vasl tuni bilan bedorlik chog’i tazod san’atini vujudga keltirgan.

Ko’zlar savodi bo’ldikim misli qumuchroq bahrda,
Ta’ni xaloyiq ichrakim, ashki hubob o’lturg’usi.

Xaloyiqning ta’na-malomatlaridan shu darajada ko’p ko’z yoshlar to’kdimki, ko’zlarimda pufakchalar paydo bo’la boshladi va ko’zlarim qorasi xuddi

⁵⁹ Ҳожиахмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия – Т.: Шарқ, 1998. 65-6.

dengizdag'i itbaliqlar singari harakatlanmoqda. Baytda mubolag'aning 3-darajasi g'uluvv tashbih vositasida ro'yobga chiqqan.

Sundim alim bo'ynig'a, to chirmashdi zulfi turrasi,

Oromsiz ko'nglumnikim, ul pech-u tob o'lturg'usi.

Qo'limni yor bo'yniga uzatgan edim, zulfining gajaklari qo'limga chirmashdi. Bu oromsiz ko'nglimni yorning buralgan zulflari nobut qiladi.

So'rsam sanamdin vaslini, doim menga bermas javob,

Tebratmayin la'li labin, noz-u itob o'lturg'usi.

Sanamdan vaslini so'rasam, doim menga javob bermaydi. Bu la'ldek qizil labini tebratmay noz-u qahr bilan o'tiradi. Mazkur baytda ham "la'li lab" birikmasi tashbih hisoblanadi.

Bazm ichra kelsa qahrikim, qilsa haqorat bir qulin,

Har bir so'zidin bizlara ming bir xitob o'lturg'usi.

Bazm aro yorning qahri kelib, agar bir qulini haqorat qiladigan bo'lsa, bu haqoratlarining ming bittasi bizlarga qaratilgan bo'ladi.

Dargohig'a kelmaklig'im, bilsam, adadsiz – beshumor,

Man' etgali dargohidin, vahkim, hisob o'lturg'usi.

Uning dargohiga borishimni hisoblaydigan bo'sam, adadsiz – sanog'i yo'q. Dargohiga (adadsiz) borishimni agar man' etsa, uni hisob qilishimning o'zi men uchun o'lim bilan teng. Baytda mubolag'aning 2-darajasi ig'roq mavjud.

Vaysiy belin bog'labdurur yozmakda vasfin naysifat,

Ko'z vasfini qilmay tamom umri shitob o'lturg'usi.

Uvaysiy nay ohangi singari yoqimli, ta'sirli qilib yorning vasfini yozishga bel bog'ladi. Lekin yor ko'zlari vasfini tamom qilmay turib umri shitob bilan o'tib

ketdi. Endi g'azalda “o’lturg’usi radifi qanday ma’nolarni ifodalaganligini umumiy ko’rib chiqsak:

1-bayt: o’tirmoq ma’nosi; 2-bayt: paydo bo’lmoq(komakchi fe'l) ma’nosi; 3-bayt: nobut qilmoq, o’ldirmoq ma’nosi; 4-bayt: yana o’tirmoq ma’nosi; 5-bayt: qaratilgan bo’lmoq (komakchi fe'l); 6-bayt: yana nobut qilmoq, o’ldirmoq ma’nosi; 7-bayt: o’tib ketmoq ma’nolari ifodalangan.

Demak, shoira g’azalida “o’lturgusi” radifini beshta yangi ma’noda ifodalab, tajnis san’atining go’zal namunasini yaratgan. Shuningdek, Uvaysiyning bizga qadar yetib kelgan to’rtta fardi va ikkita tuyug’ida ham tajnis san’atining noyob namunalarini uchratamiz.

Mushtarak san’atlar tarkibiga kiruvchi **tazod** san’ati ham shoira lirikasida muhim ahamiyatga ega. Ma’lumki, tazod baytda ma’no jihatda o’zaro zid , qarama-qarshi bo’lgan so’zlarni qo’llab, ta’sirli badiiy timsollar, lavhalar yaratishni nazarda tutadi. (Увайсий. Мазмун маъдани. 83-b.) Misol sifatida quyidagi baytlarga murojaat qilamiz:

Falak subhimni shom etti-yu, xurshidim nihon etti,

Shafaq yanglig’ nihonkim, bul hazing ko’nglimni qon etti.

(Увайсий. Мазмун маъдани. 181-b)

Bu falak quyoshim(yorim)ni mendan yashirib, tonggimni shomga aylantirdi. Xuddi quyosh yo’q bo’lganda shafaq ko’ringani kabi mening g’amgin ko’nglimda ham qonlar paydo bo’ldi. Baytda subh va shom tazod san’atini, umuman, bayt tashbih asosiga qurilgan.

Tong ermas, nola qilsam qon yutub men zor gardundin,

Shakarkom ayladi elni, meni talxi dahon etti.

Bu dunyoda zor bo’lib, qon yutib, nolalar qilsam, bu ajablanarli emas, chunki u elni shakar ila bahramand aylab, mening nasibamni achchiq qildi. Baytda tazod: shakarkom va talxi dahon so’zlaridir.

Tiriklik bahrida, afsuskim, bodi samum yetgach,

Murodim kishtini, bilmamki, qay sori ravon etti.

Afsuski, tiriklik dengizida menga o’lim shabadasi yetgach, bilmayman, murodim kemasini qay tomonga oqizib ketti ekan. Baytda tiriklik dengizi va o’lim shabadasi tazod san’atini vujudga keltirgan.

Gul ishqin dog’idakim, andalib, ko’ksida bo’lg’on jo,

Fig’onin shomdin to subh tinmay doston etti.

Gul ishqining dog’ida bulbulning ko’ksida g’amlari to’lganidan tongdan shomga qadar tinmay nola qildi. Ushbu baytda ham subh va shom tazod san’ati hisoblanadi. Mazkur baytlarga mazmun nuqtai nazaridan qarasak, oshiqning dardli, ayanchli va chigal ruhiy manzarasi tazod san’ati vositasida yuzaga chiqqan.

Uvaysiy she’riyatida mushtarak san’atlardan bo’lgan iqtibosdan ham mahorat bilan foydalanilgan. Ma’lumki, iqtibos (ar. – nur olish, ziyolanish) Qur’on oyatlari va hadislarning matnini adabiy asarda aynan keltirishga asoslangan badiiy san’atdir⁶⁰. She’rda oyat va hadis keltirish vositasida aytigan fikr rad etib bo’lmas haqiqat darajasiga ko’tarish asosiy maqsad qilib olinadi. Uvaysiyning “Yo’li sori telmura-telmura ko’zim intizori qachong’acha” misrasi bilan boshlanuvchi yorga iltijo va shikoyat mazmunida bitilgan g’azalning uchinchi baytida mazkur san’atga murojaat qilingan:

Dedi haq kalomida bandag’a: “Ki azal kun ufu biahdikum”,

Bu emas edi so’zing, ey pari, o’z alarni yori qachong’acha.

Qur’oni karimning ko’p o’rinlarida mo’mirlarning o’z ahdlariga vafo qilishi kerakligi ta’kidlanadi. Jumladan, “At-Touba” surasida ham. Baytda lirik qahramon vafosiz yoriga Allohnig o’z bandalariga xitoban “Ki azal kun ufu biahdikum

⁶⁰ Ҳожиаҳмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қоғия – Т.: Шарқ, 1998. 62-6.

(Ahdlaringga vafo qilinglar)” kalomini keltirib, o’z so’zlarini – yor ahdiga vafo qilishi kerakligini rad etib bo’lmas darajaga ko’targan.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan xulosa qilish mumkinki, Uvaysiyning badiiy mahorati, o’ziga xosligi asarlarida she’riy san’atlardan foydalanish tamoyillarida ham namoyon bo’ladi. Shoira o’z she’rlarida lafziy, ma’naviy, mushtarak san’atlardan mahorat bilan foydalanib, o’zining teran mazmunga ega fikrlarini go’zal shakkarda ifodalay oldi. Shuningdek, shoiraning xalq tili boyligidan unumli foydalanish mahoratini ham ko’rsatib berdi. Salmoqli mazmunga ega fikrlarni noyob badiiy san’atlar vositasida ifodalanishi shoiraning yuksak badiiy salohiyatidan darak beradi. Jahon otin Uvaysiy lirkasida lafziy, ma’naviy va mushtarak san’atlar tarkibiga kiruvchi yana ko’plab misollarni topish mumkin. Shuningdek, shoira Uvaysiyning badiiy mahorati faqatgina rang-barang she’riy san’atlarni qo’llay olganligida emas, balki ana shu san’atlarni o’zining teran g’oyalarini ifodalashga xizmat qildirganligidadir.

3. 2. Uvaysiy lirkasining vazn va qofiya xususiyatlari.

Sharq mumtoz adabiyotshunosligida qofiya she’rning muhim unsuri sifatida yuqori baholangan. Jumladan, Shayx Ahmad Taroziy “Funun ul-baloga” asarida qofiyani chuqur tahlil etib beradi. Badiiyat ilmida uning o’rnini yuksak belgilab, qofiya she’rning ustuni ekanligini, usiz she’r mumkin emasligini ta’kidlaydi: “...ta’bning natijasi she’rdur. Va she’rning asli qofiya. Va qofiyasiz she’r mumkin ermas”⁶¹. Darhaqiqat, qofiya mumtoz she’rshunoslikda vazn kabi she’riy ritmni vujudga keltiruvchi asosiy unsur bo’lib, uning bayt so’nggida qo’llanishi zaruriy talablardan biri bo’lgan. Sharq musulmon adabiyotshunosligida qofiya haqidagi nazariy qarashlar maxsus fan – ilmi qofiyada o’z ifodasini topgan.

Mumtoz adabiyotda shoirlarning badiiy salohiyati she’rda qo’llangan qofiyalarning g’oyalar mohiyati, timsollar olamini ochib berishdagi ahamiyati, qofiya uchun tanlangan so’zlarning ohangdorligi bilan ham belgilangan. Qofiya

⁶¹ Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балога. Тошкент: Хазина, 1996. 61-бет.

san'atlari va turlaridan unumli foydalanish, qofiyaning boshqa she'riy unsurlar – vazn, badiiy san'atlar bilan munosabatiga e'tibor qaratish mumtoz ijodkor mahoratining muhim qirralaridan biri hisoblangan. Shu sababli o'tmishda shoirlarimiz qofiya ilmini maxsus fan sifatida alohida o'rganganlar, shu sohadagi yetuk ustozlardan ta'lim olganlar.

Jahon otin Uvaysiy lirkasining poetik tadqiqiga bag'ishlangan bir necha maqlolalar muallifi, adabiyotshunos Iqbolov Adizova shoira lirkasida qo'llanilgan qofiyalarga quyidagicha baho beradi: “Uvaysiy she'riyatida ham qofiya nihoyatda muhim vazifani bajaradi. Unda har bir baytda ifodalanayotgan fikrning yechimi mujassamlanadi. Qofiyani o'qish bilan o'quvchi tasavvuri oydinlashib ketadi. Chunki qofiya faqat ohangdorlikni hosil qiluvchi so'zlar emas, balki ijodkor aytmoqchi bo'lgan fikrning mag'zini jamlab beruvchi badiiy unsur hamdir”⁶².

Mazkur fikrlarni tasdiqlagan holda, quyida shoira lirkasida qo'llanilgan qofiya va radiflar badiiyatiga xos ayrim jihatlarga to'xtalib o'tamiz:

1. Uvaysiy g'azallarida qofiya muhim ahamiyatga ega. Ayni jihatni shoiraning quyidagi g'azali misolida kuzatishimiz mumkin. U yetti baytdan iborat. Xazaji musammani solim vaznida yaratilgan (ruknlari va taqt'i: mafoiylin mafoiylyn mafoiylyn mafoiylyn; V – – – / V – – – / V – – – / V – – –). Mazkur vaznda qisqa bo'g'inlarga nisbatan cho'ziq bo'g'inlar soni ko'pligi sababli sekin o'qiladi va og'ir, vazmin ohang hosil bo'ladi. Oshiq sharhi holi, yorga iltijolari ifodalangan baytlarga ayni vaznning mutanosibligi g'azal badiiyatini oshiradi. Baytlarda “kabobidur”, “sharobidur”, “tanobidur”, “javobidur”, “turobidur”, “gulobidur”, “oftobidur”, “shitobidur” so'zları qofiya sifatida qo'llanilgan; “b” undoshi raviy. G'azalda noyirali mutlaq qofiya qo'llangan. Sharhi hol mavzusi aks etgan g'azal quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Itingga to'ma o'lmoq-chun, sanam bag'rim kabobidur,

Yana serob etmak-chun ani, ashkim sharobidur.

⁶² Адизова И. Увайсий шеъриятида кофия // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т, 2014. – №2.

(Увайсий. Мазмун маъдани. 62-b.)

Oshiq ma’shuqasining itiga o’zini qurbon qilishni istaydi. “Sening itingga taom uchun bag’rim kabob bo’lsin”, deydi. Kabob olovda jizillatib kuydirib pishiriladigan taom. Demak, oshiqning vujudi ma’shuqasining ishqida kabob singari qovurilmoqda. Ikkinchisidagi esa: Oshiq yor ishqida to’kayotgan ko’zyoshlari bilan uning itini siylashni istaydi. Mumtoz adabiyotda sharob deganda qip-qizil, tiniq may tushuniladi. Demak, oshiq ko’zlaridan shunchaki suv to’kayotgani yo’q. U may singari qip-qizil qonli yoshlar to’kmoqda. Baytda “kabobidur”, “sharobidur” sifatlovchi so’zlar vositasida lirik qahramonning ruhiy istiroblari ko’lami oydinlashadi. Baytni vazn jihatdan ruknlarga bo’lsak:

I – ting – ga to’ / ma o’l – moq – chun / sa – nam bag’ – rim / ka – bo – bi – dur
Ya – na se – ro / b(i) et – mak – chun / a – ni ash – kim / sha – ro – bi -dur.

V – – – / V – – – / V – – – / V – – –

qofiyalarning o’zi to’rtinchi ruknni hosil qiladi va solimlikni ta’minalaydi.

Giriftoringni yuz zanjir bila band etib bo’lmas,

Vale tadbiri oning xalqayi zulfiqar tanobidur.

Tasavvuf istilohida yor sochlari dunyo ramzi. Dunyo esa har bir inson o’z qismatini bosib o’tuvchi yo’l; oshiq va Alloh o’rtasida parda; ruhi mutlaqdan o’zgaliklar makoni. Mumtoz adabiyotda yor sochlari doim yuzining ikki tarafida zanjir kabi o’rilgan holda turadi. Shu sababli baytda u oshiqlarni band etuvchi zanjirga mengzalgan.

Meni maydin etib mahrum, soqiy, jam’ xotirsen,

Surohing ostina boq: anda jismimning turobidur.

Mazkur o’rinda ham qofiya butun bayt mazmunini ochuvchi kalit so’z hisoblanadi. Ey soqiy, meni maydan mahrum qilib xotiring jam bo’ldi, ammo qadahing ostiga boqqin, unda jismim tuprog’ini ko’rasan. May ostidagi quyqum oshiq jismining

tuprog'i ekanligi – uning jismi avvaldan ishq – may bilan qorilganligini, azaldan uning taqdiriga ishq bitilganligini anglatadi. Ayni mazmun shoiraning mana bu baytlarini yodimizga tushiradi:

Meni “Loyadxulu” deb mahrum etma bog’bon ahli

Azal dehqoni bag’rim qonini sochgan bu gulzora.

(Увайсий. Мазмун маъдани. 151-b.)

G’azalning qolgan baytlari ham xuddi shu usulda davom etgan. Bir so’z bilan shuni aytish mumkinki, shoiraning ko’plab g’azallari qatori mazkur o’rinda ham qofiyalar baytlar tarkibida eng muhim ma’noni o’zida mujassamlashtiruvchi unsur hisoblanadi.

2. Ko’plab she’rlarida qofiya sifatida fe’llardan foydalanadi. Gap tarkibida u kesim vazifasida keladi. Kesim esa gap oxirida kelib, tugal fikr va mazmun ifodalaydi. Natijada baytlar nasriy bayon bilan tenglashadi. Misol sifatida quyidagi g’azal matniga e’tiboringizni qaratsak:

Ruhing uzra iki gisuyi shabranging tutoshibdur,

Ki ganj ustida go’yo iki ajdar taloshibdur.

Gul ermas, gulshan ahlin ko’zlari qon ila to’ldirmish,

Tegib g’amzang o’qi nechunki, har yondin qaroshibdur.

Shafaq ermas, yuzing hijronida xurshidi xovardur,

Ani o’tlug’ tanidin charxni o’ngri tutoshibdur.

Qoshing savdosi men devonani boshig’ a tushguncha,

Sirishkim seli tug’yon falak toqidin oshibdur.

Tanimg’ a o’qlaring muhlik emas, balki mador istab,

Bu to’rt devorg’ a har yondin cho’plar qaloshibdur.

Tarahhum birla Vaysiyg’ a, nigor, manziling ko’rguz,

Bu muhlik vodida ushbu musofir yo'l adoshibdur⁶³.

Mazkur g'azalning benazirligi yana shundaki, birinchi misrada ifodalangan mazmunni yanada oydinlashtirish, yaqqol gavdalantirish uchun qofiyalar mohirlik bilan badiiy san'atlar vositasida ifodalangan.

1-baytda: tamsil; 2-baytda: husni ta'lil; 3-baytda: husni ta'lil; 4-baytda: mubolag'a: g'uluvv; 5-baytda: tashxis; 6-baytda: tashbih.

3. Uvaysiy lirikasida qofiya san'atlaridan “musajja’ ” usulida bitilgan g'azallarni ham uchratamiz. “Saj’li, qofiyali ma’nosini bildirib, baytlari ichki qofiyali bo’lgan she’riy asarlar shunday ataladi. Musajja’ she’rlarda baytlardagi misralar to’rt bo’lakka bo’linib oldingi uch bo’lak mustaqil holda qofiyalanib, to’rtinchchi bo’lak esa she’rdagi asosiy qofiyaga ohangdosh so’z bilan tugallanadi. Bu xil qofiya usuli to’rtta teng bo’lakka bo’linishi mumkin bo’lgan sakkiz ruknli (musamman) baytlardagina qo’llanilishi mumkin”⁶⁴. Shoiraning hajviy mavzu ifodalangan “kafshim yo’qoldi sandamu?” radifli g'azali mazkur san’at namunasidir:

Xo’qand shahridin kelganlar, kafshim yo’qoldi, sandamu?

Holi dilimni bilganlar, kafshim yo’qoldi, sandamu?

Ul kun keldik shahri Xo’jand, ko’ngul bo’ldi ancha xursand,

O’ratepa “Mug’i baland”, kafshim yo’qoldi, sandamu?

Bag’ridadir lola dog’i, bahosidur yuz ming bog’i,

Tamosho jo Ko’hak tog’i, kafshim yo’qoldi, sandamu?

(Увайсий. Мазмун маъдани. 138-b.)

G’azal matla’si an’anaviy tarzda musajja emas, oddiy usulda bitilgan. Vazni: rajazi musammani solim (ruknlari va taqtisi: mustaf’ilun mustaf’ilun mustaf’ilun mustaf’ilun – – V – / – – V – / – – V – / – – V –).

⁶³ Увайсий. Девон.: Тузувчиликар: А. Қаюмов, Э. Иброҳимова. – Т.: 1959. 110-6.

⁶⁴ Ҳожиаҳмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия – Т.: Шарқ, 1998. 146-6.

Baytlar teng to'rt bo'lakka bo'lingan: uch bo'lagi o'zoro qofiyalanib, to'rtinchi bo'lak g'azalning umumiyligi ohangiga mutanosib. Musajja' g'azallar bitish faqatgina mahoratli shoirlar tomonidan amalga oshirilgan. Xususan, Navoiy, Bobur, Ogahiy, Furqat kabilar o'z ijodi davomida ushbu san'atga murojaat qilganlar.

Shoira lirikasida qofiyasiz radifdan tashkil topgan g'azallarni ham uchratamiz.

Zamona kulfatidin bu ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi,

Bu charxi bemuruvvatdin ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi.

Jarohat bo'ldi bag'rim tig'i bedodi raqiblardin,

Bu ko'tahfahm mardumdin ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi.

(Увайсий. Мазмун маъдани. 180-b.)

Ma'lumki, she'rda qofiya, radif, vazn she'riy asar ritmini, musiqiyligini ta'minlab beruvchi muhim unsurlardir. Qofiya she'rdagi eng muhim so'zni ifodalasa, radif eng muhim fikrni ta'kidlash vazifasini bajaradi. Mazkur g'azalda lirik qahramonning ko'nglidagi dardlari, istiroblarini ifodalash birinchi planga ko'tarilgan va bu vazifani radif orqali a'lo darajada amalga oshirilgan. Nega mazkur g'azalda qofiyaning yo'qligi baytlar ohangiga putur yetkazmaydi? G'azal xazaji musammani solim vaznida yaratilgan (ruknlari va taqtisi: mafoiylin mafoiylin mafoiylin mafoiylin; V - - - / V - - - / V - - - / V - - -). Baytlarni vaznga solib ko'rsak:

Za – mo – na kul / fa – ti – din bu / ko’ – ngul do – g’ o’l – di / do – g’ o’l – di,

Bu char – xi be / mu – ruv – vat – din / ko’ – ngul do – g’ o’l – di / do – g’ o’l – di.

V – - - / V – - - / V – - - / V – - -

Birinchidan, solim vaznda yaratilgangi, ya'ni barcha ruknlarning o'lchov jihatidan tengligi. Ikkinchidan, to'rtala ruknning yarmini radif tashkil etib, asosiy ohangni

ta'minlab bergenligidir. Bu o'rinda ham shoiraning badiiy mahoratiga tan beramay ilojimiz yo'q.

4. Shoira o'z g'azallarida qofiya bilan radif hamohangligiga ham alohida e'tobor qaratadi.

Ko'ngul uyida chu ehrom ayla, aylanayin,
Tarahhum ila shirin kom ayla, aylanayin.
Azizimaki durusht ro'y bo'lmag'il, ey gul,
Yuzingni men sori gulfom ayla, aylanayin.
G'arib ko'nglumi bilgungdururki – baytulloh,
Bu so'z bila ani ikrom ayla, aylanayin...

(Увайсий. Мазмун маъдани. 180-b.)

Baytda "aylanayin"(xalq tilida erkalash ma'nosida ishlatiladi) radif sifatida, ehrom ayla, kom ayla, gulfom ayla...(qil, et, bo'l ma'nosida) qo'shma fe'l qofiya sifatida tanlangan. Yorga iltijo, murojaat mazmuni ifodalangan mazkur g'azal vazni xazaji musammmani mahzuf (ruknlari va taqt'i: mafoiylin mafoiylin mafoiylin fa'uvlun; V - - - / V - - - / V - - - / V - -). Baytlarni vaznga solib o'qisak, tavze' san'ati mavjudligi (bir xil tovushlar takroridan yuzaga kelgan ohangdoshlik) yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi:

Ko' – ngul – u – yi /da – chu – eh – ro / m(i) – ay – la – ay /la – na – yin
Ta – rah – hum – i / la – shi – rin – ko / m(i) – ay – la – ay / la – na – yin.

Uchinchi rukn o'zaro, uchinchi va to'rtinchi rukn bir-biri bilan hamohangligi g'azalga o'ziga xos joziba bag'ishlagan va uning badiiyatini yanada yuksaltirgan.

5. Shoira g'azallarida qofiyalarni badiiy san'atlar bilan uyg'unlikda qo'llab, baytlar mazmunini mukammallashtirishga va ifoda ta'sirchanligiga erishgan. Shoiraning "Hiloli avji gardun go'shayi tarfi kulohimdur, Nechunkim bu malaksiymo maqomi

borgohimdur”, matla’li oshiq sharhi holi aks etgan g’azalda qofiyani takrorlash orqali butun misra yaratiladi:

Meni rangimga boqmay ey parivash necha injitmak,

Gunohimdur, gunohimdur, gunohimdur, gunohimdur⁶⁵.

Shuningdek, aksariyat g’azal baytlari tarkibida “tazod” san’atini qofiyalar bilan uyg’unlikda qo’llaydi:

Gulshani dahr ichra barcha shod, qayg’udir menga,

Kim nasib o’lg’on menga hijroni gulro’dir menga.

Elga bo’stoni karamdin marhamat joriy etar,

Bemuruvvat sangdil doim jafojo’dir menga.

Qayda bir devonani rom etgali shirin zabon,

Oshnoliq matrabinda ko’rdi badxo’dir menga.

(Увайсий. Мазмун маъдани. 10-б.)

G’azalda oshiqning istiroblarga to’la ruhiy manzarasini ifodalashda qofiyalardan mahorat bilan foydalanilgan. Baytlarda tazod san’ati qofiyalar vositasida yuzaga chiqqan. Azod san’ati: shod va qayg’u; shod va gulro’ hijroni; karam, marhamat va jafojo’; shirin zabon va badxo’(yomonlik qilish) kabilar orqali qofiyalar bo’rtib ko’rinadi. Natijada bosh mavzu oshiqning ruhiy manzarasi qofiyada konkretlashadi.

Uvaysiy g’azallarida yana vazn va qofiya bilan aloqador “muvozina” san’atini ham uchratamiz. “Vazn, (o’lchov) jihatidan tengdoshlik” ma’nosini ifodalovchi ushbu san’at bayt misralaridagi barcha so’zlarning vazn (o’lchov) jihatidan teng bo’lishini nazarda tutadi⁶⁶.

To’bidin ahsan erur dilbar qadi zebolig’ing,

⁶⁵ Mazkur g’azalning bat afsil tavsifi III bob, 1-faslda berilgan.

⁶⁶ Ҳожиаҳмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қоғия – Т.: Шарқ, 1998. 105-6.

To'tidin afsah erur shirin-shakar go'yolig'ing.

(Увайсий. Мазмун маъдани. 94-b.)

Baytda birinchi misradan o'ren olgan to'bidin so'zi ikkinchi misradagi to'tidin so'zi bilan, ahsan – afsah so'zi bilan, zebolig'ing – go'yolig'ing so'zi bilan vazn(o'lchov) va ohangda tengligi mazkur san'atni yuzaga keltiradi.

Adabiyotshunos A Hojiahmedov shoirlar ijodida kamdan kam uchraydigan hodisa – “musalsal” usulida bitilgan g'azal Uvaysiy ijodida mavjud ekanligini e'tirof etib, “Dedi bir kun menga ul mahvashim: “Ey sho'x beparvo”, Men aydim: “Sen dema, men deyki: solding boshima savdo!””⁶⁷ matla'li g'azalini misol sifatida keltiradi.

Jahon otin Uvaysiy lirikasi bo'yicha ko'plab tadqiqot va maqolalar muallifi adabiyotshunos I. Adizova shoira mahoratini namoyon qiluvchi g'azallarida qo'llangan qofiya bilan bog'liq e'not, tashri', takror singari san'atlarni kashf etganligini e'tirof etgan edi.

6. Qofiya san'atlaridan yana biri tajnisli qofiyadir. Turkiy adabiyotda bu san'at tuyuqnavislikda keng qo'llanilgan. G'azallarda bu san'atga mahoratli shoirlargina murojaat eta olganlar. Doimo yangilikka intiluvchi bo'lган shoira “Vasling tuni oshiqlaring ul masti xob o'lturg'usi, Bedorlig' chog'i yana sharmi hijob o'lturg'usi”. (Увайсий. Мазмун маъдани. 178-b.) matla'li g'azalida tajnis san'atini radiflarida qo'llab, o'z mahoratini namoyon qilgan:

G'azalda “xob”, “hijob”, “hubob”, “pech-u tob”, “noz-u itob”, “xitob”, “hisob”, “shitob” so'zлари qofiya sifatida, o'ltirg'usi” so'zi radifi bo'lib kelgan. Baytlarda radif so'z quyidagi yangi ma'nolarni ifodalab keladi: 1-bayt: o'tirmoq ma'nosi; 2-bayt: paydo bo'lmoq(komakchi fe'l) ma'nosi; 3-bayt: nobut qilmoq, o'ldirmoq ma'nosi; 4-bayt: yana o'tirmoq ma'nosi; 5-bayt: qaratilgan bo'lmoq (komakchi fe'l); 6-bayt: yana nobut qilmoq, o'ldirmoq ma'nosi; 7-bayt: o'tib ketmoq ma'nolari ifodalangan.

⁶⁷ Ҳожиаҳмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия – Т.: Шарқ, 1998. 152-б.

Demak, shoira g'azalida “o’lturgusi” radifini beshta yangi ma’noda ifodalab, tajnis san’atining go’zal namunasini yaratgan. Shoiraning bizga qadar yetib kelgan to’rtta fardi va ikkita tuyug’i bu san’atning go’zal namunalaridir.

7. Shoira g’azallarida radiflardan mahorat bilan foydalanadi. Mumtoz adabiyotda ko’pincha oftob yuksakligi, porloqligi jihatidan yorga mengzaladi. Uvaysiyning quyidagi g’azalida radif sifatida qo’llangan oftob o’z ma’nosida kelgan. Ammo bu shunchaki emas.

Qildi ul mashriq sardin o’zni izhor oftob,

Na uchun kim izlag’ay har ro’z diydor oftob?

(Увайсий. Мазмун маъдани. 33-б.)

Sharq tarafdan oftob o’zini oshkor etdi. U har kuni kimning diydorini izlar ekan?

Charx zarfig’a qo’yub og’zin yutar har kunda qon,

Shom vaqtida shafaq bilgurdi xunbor oftob.

Osmon o’z qadahiga og’zini qo’yib har kuni qon yutadi. Shom vaqtida yaltirab shafaq ko’rindi. (menimcha) Oftob (yana) qonli ko’z yoshlarini yo’kkani ko’rinadi.

Kecha izlar, kunduz izlar, vahki, birmad tinmayin,

Charx vodiysida Majnuni jigar xor oftob.

Bu o’rinda oftob jigar bag’ri ezilgan Majnunga o’xshatilgan bo’lsa, keyingi baytda u lirik qahramonning yoriga oshiq bo’lib qolganligi anglashiladi va g’azal oxirigacha shu mazmunda davom etadi.

Ma’lumki, radif she’rda ifodalanayotgan yetakchi fikrni ta’kidlash, o’quvchi e’tiborini asosiy g’oyaga jalb etib shoir g’oyaviy niyatini o’quvchi qalbiga to’laroq, chuqurroq yetkazish vazifasini bajaradi. Oftobni o’zi kabi oshiq sifatida gavdalantirishdan maqsad, barcha oshiqlarning yoridan o’zining ma’shuqasi yuksak ekanligini ta’kidlashdir.

8. Ko'p o'rirlarda radif sifatida so'roq olmoshlaridan foydalanadi. Baytlar esa ritorik so'roq gaplardan iborat bo'ldi.

Chu bulbul shavqi gul birlan fig'on etmay, nechuk qilsun?

Tikan zahmi bilan ko'ksini qon etmay, nechuk qilsun?

(Увайсий. Мазмун маъдани. 131-б.)

Gap tarkibida eng muhim so'z urg'u oladi. So'roq olmoshlari gap tarkibida kelsa, urg'u o'z-o'zidan so'roq olmoshlariga tushadi. She'rda uni radif sifatida kelishi eng muhim so'zning ta'kidlanishi demakdir. She'rga sinchiklab nazar tashlasak, baytlar mazmuni so'roq olmoshlarisiz yuzaga chiqmaydi. Chunki so'roq olmoshlari baytlarda ifodalangan manzarani quyuqlashtirishga, o'quvchiga ta'sirchan yetkazishga xizmat qilgan. Bu esa shoiraning radif qo'llashdagi mahoratini namoyon qiladi.

Yuqorida qayd etilgan mulohazalardan quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin: Uvaysiuning badiiy mahorati asarlarida qofiya va radif qo'llash tamoyillarida ham namoyon bo'ladi. Eng muhim badiiy unsur sifatida unga katta e'tibor qaratadi. Ulkan vazifa yuklaydi. Unda shoira maqsadining avj nuqtasi, fikrlarining yechimi mujassamlanadi. U mumtoz she'riyatimizda kamdan kam uchraydigan musajja, musalsal va qofiyasiz g'azallar bitish bilan she'r ilmi borasidagi yetuk salohiyatini va mahoratini namoyon eta oldi. Shoira asarlarida qofiya bilan bog'liq takrir, mukarrar, muvozina, tajnis, tashri', e'not kabi ko'plab badiiy san'atlar ham qo'llaydi. Uvaysiy qofiya va radif hamohangligi, ularning vazn bilan ham muvofiqligiga alohida e'tibor qaratadi. Shoira ko'p o'rirlarda radif sifatida so'roq olmoshlaridan foydalanadi. Bu orqali radifning she'rdagi vazifasi va ahamiyatini mustahkamlaydi.

Ko'rinaldiki, Uvaysiy she'riyatida qofiya va radifning o'rnini, vazifasini o'rganish uning mahorat qirralarini, ijodining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashimizda muhimdir.

Xulosa

Mazkur dissertatsiya ishimizni har tomonlama atroflicha o'rganib chiqqan holda quyidagi xulosalarga keldik: o'zbek adabiyoti tarixida shoiralarning silsilasi Jahon otin Uvaysiy nomi bilan bog'liq bo'lib, Uvaysiygacha o'zbek shoiralarining asarlari adabiyotimiz tarixida qayd etilmagan. Qo'qon adabiy muhitida bir guruh shoiralarga ustozlik qilgan Jahon otin Uvaysiy O'zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotiga o'zining salmoqli hissasini qo'sha oldi. Ayollar tasavvufi tushunchasini yangi pog'onaga olib chiqdi. Badiiyat jihatdan pishiq go'zal sheriyatni nafaqat shoiralar uchun balki shoirlar uchun ham mahorat maktabi sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Jahon otin Uvaysiy lirik merosi yuksak gumanistik g'oyalar, xususan, Sharq tasavvuf falsafasi bilan sug'orilgan. Shoiraning bugungi kunda ma'lum bo'lgan devoni 4 ta bo'lib, Muhammad Yusuf xattot tomonidan ko'chirilgan bиринчи devoni 5 ta janrni o'z ichiga oladi. Keyinchalik topilgan 3 ta devonida esa 10 ta janrdagi sherlar mavjud. Uvaysiy hajman salmoqli turli janrdagi mazmunan mukammal ijod mahsuli bilan o'sha davr she'riyati rivojiga sezilarli darajada o'z hissasini qo'sha oldi. O'zigacha bo'lgan mumtoz adabiy an'analarni o'rgangan holda munosib tarzda yana takomollashtirib, davom ettirdi. Shoira Uvaysiy salmoqli bu lirik merosi bilan mumtoz klassiklar qatoridan munosib o'z o'rniiga ega bo'la oldi.

Jahon otin Uvaysiy g'azal janrini o'zigacha mavjud an'analarni davom ettirgan holda mavzu jihatidan rang-barang, badiiyatan puxta, mazmunan yetuk namunalarni yarata oldi. Shoira g'azallari baytlar soni jihatidan 4 baytdan 12 baytgacha hajmni tashkil etadi. Uvaysiy g'azallari mavzu ko'lami rang-barang bo'lib, irfoniy-ishqiy, falsafiy, hasbi hol, hajviy, ijtimoiy mavzularni o'z ichiga olgan. She'rlarida yetakchi mavzu tasavvufiy ishq bo'lib, dunyoviy muhabbat tarannumi shoira lirikasida uchramaydi. An'anaviy Sharq she'riyatiga xos majoziy ishqning haqiqatga ulanib ketishi Uvaysiy she'riyati mohiyati uchun ham xos bo'lib, u ikki xil ko'rinishda – to'g'ridan to'g'ri va ramzlar vositasida namoyon

bo'ladi. Shoira g'azallarining qurilishi, semantik-struktur tomonlari va ramziy-ma'joziy ifodalanish shakllari jihatidan ham o'ziga xosliklari yaqqol ko'rindi. Uning g'azallarida Sharq klassik adabiyotining mashhur siymolariga ishoralarni, shuningdek, ularning ijodiy falsafasi bilan uyg'unlikni ham ko'ramiz.

Shoiraning ko'plab tab'i xud va taxmis muxammaslar yaratish orqali o'zining muxammas yaratish mahoratini namoyon eta oldi. Navoiy falsafiy qarashlari bilan umumiy zaminga ega Uvaysiy shoirning bir necha g'azallariga mahorat bilan taxmislari bog'laydi. Xususan, "hayf" radifli g'azaliga bog'lagan taxmisida Uvaysiy Navoiy fikrlarini rivojlantirib, baytlar mazmunini yanada konkretlashtirgan. Shuningdek, har bir misralarni shoir baytlariga mantiqan uyg'un holda qo'llash orqali yaxlit bir asar darajasiga ko'tara olgan. Shoiraning Amiriyl, Fuzuliy, Vazir, Jomiy g'azalariga taxmislari ham uning she'rxonlik salohiyati qay darajada yuksak ekanligi haqida tasavvur hosil qilishimizga asos beradi. Bir so'z bilan shuni aytish mumkinki, taxmis bog'lash shunchaki baytni beshlantirish emas, balki taxmis bog'lamoqchi bo'lgan shoir bilan mahorat musobaqasiga kirishish hamdir. Uvaysiy bu vazifani yuksak darajada bajara oldi.

Uvaysiy tarji'bandlarini o'ziga xos usulda va hajmda yaratadi. Uning ishqiy va ijtimoiy mavzular aks etgan tarji'bandlari orqali uning mahorat qirralarini ko'rish mumkin. Jumladan, ular mavzu va g'oyaning vaznga muvofiqligi, qofiya va badiiy san'atlarning mahorat bilan qo'llanishida namoyon bo'ladi. Uvaysiyning yuqorida tahlilini ko'rganimiz birgina tarkibbandida tasavvufiy-ramziy ishq talqin etilgan. Shuningdek, she'rning har bandida ishqning har bir oshiq bosib o'tishi kerak bo'lgan asosiy tamoyillari bayon qilinadi. Bu g'oyalarning noyob badiiy san'atlar asosida ifodalanishi esa uni badiiyat jihatdan mukammal asar darajasiga ko'targan.

Uvaysiyning badiiy mahorati, o'ziga xosligi asarlarida she'riy san'atlardan foydalanish tamoyillarida ham namoyon bo'ladi. Shoira o'z she'rlarida lafziy, ma'naviy, mushtarak san'atlardan mahorat bilan foydalanib, o'zining teran mazmunga ega fikrlarini go'zal shakllarda ifodalay oldi. Shuningdek, shoira o'zining xalq tili boyligidan unumli foydalanish mahoratini ham ko'rsatib berdi.

Salmoqli mazmunga ega fikrlarni noyob badiiy san'atlar vositasida ifodalanishi shoiraning yuksak badiiy salohiyatidan darak beradi. Jahon otin Uvaysiy lirkasida lafziy, ma'naviy va mushtarak san'atlar tarkibiga kiruvchi yana ko'plab misollarni topish mumkin. Shuningdek, shoira Uvaysiyning badiiy mahorati faqatgina rang-barang she'riy san'atlarni qo'llay olganligida emas, balki ana shu san'atlarni o'zining teran g'oyalarini ifodalashga xizmat qildirganligidadir.

Uvaysiyning badiiy mahorati asarlarida qofiya va radif qo'llash tamoyillarida ham namoyon bo'ladi. Eng muhim badiiy unsur sifatida unga katta e'tibor qaratadi. Ulkan vazifa yuklaydi. Unda shoira maqsadining avj nuqtasi, fikrlarining yechimi mujassamlanadi. U mumtoz she'riyatimizda kamdan kam uchraydigan musajja, musalsal va qofiyasiz g'azallar bitish bilan she'r ilmi borasidagi yetuk salohiyatini va mahoratini namoyon eta oldi. Shoira asarlarida qofiya bilan bog'liq takrir, mukarrar, muvozina, tajnis, tashri', e'not kabi ko'plab badiiy san'atlar ham qo'llaydi. Uvaysiy qofiya va radif hamohangligi, ularning vazn bilan ham muvofiqligiga alohida e'tibor qaratadi. Shoira ko'p o'rirlarda radif sifatida so'roq olmoshlaridan foydalanadi. Bu orqali radifning she'rdagi vazifasi va ahamiyatini mustahkamlaydi.

Ko'rindiki, Uvaysiy she'riyatini poetik nuqtai nazardan tadqiq etish uning mahorat qirralarini, ijodining o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etadi. Shuningdek, uning o'zbek mumtoz adabiyotida o'ziga xos mavqeyini aniqlashimizda ham muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili" haqidagi Qonuni/ Xalq so'zi. 1995-yil, 29-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni/ Toshkent: Sharq, 1998. – 48 b.
3. O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29- avgustdagи "Kadarlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999- yil 16- avgustdagи "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 390-sonli qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 6- apreldagi "Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 15- martdagи "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 140-sonli qarori.

II

1. Karimov I.A. Yuksak ma'nnaviyat – yengilmas kuch. – Toshkent.: Ma'nnaviyat, – 176 b.
2. Mirziyoyev Sh. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish –xalqimiz ma'nnaviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. //Xalq so'zi, 2017, 4 avgust
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson mafaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent.: O'zbekiston, 2016. – 488 b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent.: O’zbekiston, 2016. – 56 b.

5. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent.: O’zbekiston, 2016. – 488 b.

6. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent.: O’zbekiston, – 2017. – 104 b.

7. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. /1-jild/ – T.: O’zbekiston NMIU, 2017. 592 b.

8. Mirziyoyev Sh. M. 2017—2021-yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. 2017- yil 7-fevral.

9. Mirziyoyev Sh. M. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida 2017- yil 12-yanvar PF.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017- yil 19- sentyabr Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018- yil 28- dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

III

1. Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1967. – 380 б.

2. Абдулкарим Фазлий Намангоний. Мажмуаи шоирон. Табдил ва тарма /
Тузувчи: Маҳмуд Ҳасаний. – Т.: Фан, 2018.
3. Адизова. И. Мумтоз ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Фан, 2009. – 248 б.
4. Адизова И. Увайсий ижодида чистон жанри / Ўзбек тили ва адабиёти. –
Т.: 2008, №2. 41-45-б.
5. Адизова И. Увайсий ижодида жанрлар такомили/Рисола. – Т.: 2011, 6-
б.
6. Адизова И. Увайсий ижодида анъанавийлик /Тил ва адабиёт таълими. –
Т.: 2011, №3. 34-36-б.
7. Адизова И. Ул матойи рамзға бозордурман ишқида /Шарқ юлдузи. –
Т.: 2013, №3. 172-75-б.
8. Адизова И. Увайсий ижодида қофиянинг ўрни / Ўзбек тили ва
адабиёти. – Т.: 2014, №2. 55-50-б.
9. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr (nasriy bayoni bilan). – Т.: G'. G'ulom
nomidagi NMIU, 2005. 464-b.
10. Алишер Навоий. қомусий луғат: 1-2-жиллар/ Масъул муҳаррир Ш.
Сирожиддинов. – Т.: Шарқ, 2006. – 536 б.
- 11.Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға. – Тошкент.: Хазина, 1996. 61-бет.
- 12.Атоуллоҳ Ҳусайнин. Бадойиъу-с-санойиъ Форсчадан А. Рустамов
таржимаси. – Т.:Адабиёт ва санъат, 1981. – 398 б.
13. Ҳаққулов И. Увайсий шеърияти: таҳлил ва талқин. – Т.: Фан, 1982. –
114 б.
- 14.Ҳаққулов И. Тасаввуф ва шеърият. – Т.:Адабиёт ва санъат, 1991. – 240
б.
- 15.Ҳаққулов И. Камол ет касбким. – Т.:Чўлпон, 1991. – 184 б.
- 16.Ҳожиахмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия – Т.: Шарқ НМК,
1998. – 158 б.
- 17.Ҳожиахмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати .– Т.: Шарқ, 1999. – 240 б.
- 18.Ҳожиахмедов А. Ҳусни таълил санъати.– Т.: Фан, 2006. – 288 б.

- 19.Ироҳимова Е. Увайсий. Ҳаёти ва ижоди. – Т.: Ф Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1963.
20. Исҳоқов Ё. Навоий поетикаси. – Т.: Фан, 1983. – 168 б.
21. Жалолов Т. Ўзбек шоиралари.: Т – Ф Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1970.
- 22.Комилов Н. Тасаввуф. – Т.: Мовароуннаҳр – O’zbekiston, 2009. – 444 б.
23. Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. – Т.: Мухаррир, 2011. – 85 б.
- 24.Олимов М. Рисолаи аruz. – Тошкент:Ёзувчи, 2002. – 88 б.
- 25.Олимов С. Ишқ, ошиқ ва маъшуқ / Увайсий Увайсиймиди. – Тошкент: Ёзувчи, 2002. 88-6.
26. Orzibekov R. O’zbek adabiyoti tarixi. – Т.:O’zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg’armasi nashriyoti, 2006. – 272 б.
- 27.Қайюмов П. Тазкираи Қайюмий.: Т – 1983. 75-б.
28. Қаюмов А. Қўқон адабий муҳити. – Т.: Mumtoz so’z, 2010.
29. Qur’oni karim ma’nolari tarjimasি. Tarjimon va izohlar muallifi: A. Mansur. – Toshkent: 2013. – 483 b.
30. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Toshkent: Akademnashr, 2010. – 400 b.
31. Quronov D. Адабиётшуносликка кириш. Т.:Фан, 2007. – 227 б.
32. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O’qituvchi, 2005. – 272 б.
33. Усмон Турар. Тасаввуф тарихи. – Т.: Истиқлол, 1999. – 180 б.
34. Увайсий. Девон.: Тузувчилар: А. Қаюмов, Э. Иброҳимова. – Т.: Фан, 1959.
35. Увайсий. Кўнгил гулзори.: Тузувчилар: И. Қосимов, А. Валихонов, – Т.: Ф Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти,1983.
36. Қодирова М. Увайсий шеъриятидан: шеърлар .– Т.: Ўзбекистон, 1980. – 104 б.

37. Увайсий, Нодира. Ўзбек шоиралари баёзи / Тузувчи: Қодирова М. – Т.: Фан, 1993. 250-б.
38. Увайсий. Мазмун маъдани: шеърлар/Тузувчилар: А.Турдиалиев, У. Неъматов. – Т.: Akademnashr, 2010. – 256 б.
39. Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи.Т.: – Ўқитувчи, 1967. 337-б.
40. Зоҳидова Д. Аруз сабоқлари: ўқув қўлланма / Масъул муҳаррир А. Турдиалиев – Т.: MUMTOZ SO’Z, 2016. – 112 б.
41. Шарқ мумтоз поетикаси: Манба ва талқинлар / Нашрга таййорловчи, талқин ва шарҳлар муаллифи Ҳ. Болтабоев. – Тошкент: Ўзбек миллий енсиклопедияси, 2006. – 403 б.

IV

1. www.tdpu.uz
2. www.edu.uz
3. tdpu-INTRANET.Ped
- 4.www.pedagog.uz
- 5.www.ziyonet.uz
6. www.kspi.uz
7. [https://www.zarnewsuz.com.](https://www.zarnewsuz.com)